

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK__811.512.133.83.373.21__

BO‘TAYAROVA GULASAL SOBIROVNA

**ANGOR TUMANI ONOMASTIKASINING SISTEM-STRUKTUR
XUSUSIYATLARI**

70230101- Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

f.f.d., prof. Sh. Maxmaraimova

Termiz - 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 24-yanvardagi №2-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi.



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20 - raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ f.f.dok.prof.Sh.Maxmaraimova

Kafedra mudir: _____ f.f.d. PhD N. Amonturdiyev

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ f.f.d. PhD A. Narbayev

70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti Bo‘tayarova Gulasal Sobirovnaning “Angor tumani onomastikasining sistem-struktur xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi
ANNOTASIYASI

Tayanch so‘zlar: onomastika, toponimika, gidronimlar, nomshunoslik, oronimlar.

Tadqiqot obyektlari: Tadqiqotning obyekti sifatida Angor tumanidagi toponimlarning nomlanishi va qiyosiy tasniflash uchun ba’zi hududlarga oid toponimik nomlari olindi.

Ishning maqsadi: Angor tumanidagi joy nomlarinimonografik asosda onomastic tizimiga keltirish orqali ularning semantic xususiyatlarini, yasalish usullari va tuzulishini aniqlash hamda indekatorlarning ma’no-mavzuviy turlari, ma’no ko‘chish jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotda lingvistik tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-etimologik tasniflash uchun ba’zi hududlarga oid toponimik.

Tadqiqot predmetini tuman topnimlarining semantic xususiyatlari, ularning Grammatik tuzilishi tashkil etadi.

Tatbiq etish darajasi: tadqiqot natijalaridan tilshunoslik etimologiya, arealingvistika, toponimlarni taxlil etish jarayonida foydalanish mumkin.

70230101-Master’s thesis of Linguistics (Uzbek language) specialist Botayarova Gulasal Sobirovna on the topic “System-structural features of the onomastics of Angor district”

ANNOTATION

Relevance of the topic. In onomastic studies in world linguistics, more and more attention is being paid to toponymic units, which are increasing in quantity, not only in form, but also in terms of their semantic thematic groups, etymology, nominative function and structure, and ethnocultural features of the people in place names. It has been proved that the place of toponyms in the system of famous nouns in world linguistics is of great importance. As a result, research principles were improved in sociolinguistic, pragmalinguistic, anthropocentric and

linguocultural aspects, and new views were put forward that toponyms reflect the unity of language, nation and culture. The field of toponymy has become one of the developing scientific directions in world linguistics. Ethnolinguistic, ethnocultural, sociolinguistic interpretations of place names have been opened based on the spiritual culture, political and economic situation of the people. All toponymic units that provide rich linguistic, ethnographic, topographic and historical information about water bodies, land and its geographical location, nature, city, neighborhood, village, people and their ethnic composition are psycholinguistic, semasiological, onomasiological based on new linguistic paradigms, focused on research in etymological, cognitive and conceptual aspects. At the same time, the onomastic study of toponyms formed from areal lexical units in a certain area provides an opportunity to prove the specific aspects of place names in other places. Attention to place names after our country gained independence strengthened, new geographical objects are named according to our national ideology started. Naming social objects is just a personal or not a private affair. This is the level of patriotism and spirituality of all of us is a unique criterion that clearly shows.

Level of study of the problem. A special study of the toponymic system of a certain region in recent times in world linguistics scientific work was carried out. Including G. Zakirova, A. Garayeva, A. Galsova, M. Surkova and A. Yegurnova, in Turkish languages K. Konkobayev, K. Risbergenova, R. Khaziyev, R. Sadikova, O. Makhmadjonov, in Uzbek linguistics and toponyms were studied structurally- semantically, historically-linguistically in scientific works of T.Nafasov, Z.Dosimov, J.Latipov, S.Boriyev. The study of toponyms was also carried out in Karakalpak linguistics, and in this regard it is worth highlighting the researches of Q. Abdimuratov, M. Gurbanov, and G. Mambetova. Some toponyms and hydronyms of Karakalpakstan were studied in these studies.

The purpose of the study. It is to determine the semantic features, methods and structure of the names of places in Angor district on a monographic basis, as

well as to reveal the semantic and thematic types of indicators, the aspects of meaning transfer.

Tasks of the research:

- collection of district toponyms, their lexical-semantic features and classification of grammatical structure;
- determination of ethnolinguistic, natural-geographical, socio-economic principles in the naming of toponyms;
- explanation of toponym formation methods and grammatical structure;
- classification of toponyms by dividing them into semantic groups;

As the object of the study, the toponyms of some regions were taken for naming and comparative classification of toponyms in Angor district.

The subject of the study is the semantic features of district toponyms, their grammatical structure. The scientific novelty of prohibition. We can point out the following as a scientific novelty of this dissertation:

- for the first time in the study, toponyms and microtoponyms of angor district were divided into semantic groups and linguistically analyzed;
- the basics of formation of toponyms in angor district were studied;
- toponyms based on anthroponyms were collected and analyzed;
- toponyms based on litonyms in angor district were analyzed.

Research methods. Linguistic description, comparative-historical, historical-etymological methods were used in the research.

The structure and scope of the dissertation. The dissertation consists of an introduction, three main chapters, a list of used literature, and the total volume... Creates a pages.

MUNDARIJA

KIRISH	
I BOB. TILSHUNOSLIKDA ONOMASIOLOGIK SATH VA UNING TADQIQI	
1.1. Nomshunoslikning tadqiq ko‘lami va onomastik tadqiqotlar sharhi.....	
1.2. Onomasiologik tadqiqotlar tizimida toponimikaning o‘rni.....	
1.3. Toponimlarni tasnif qilish usullari.....	
I bob bo‘yicha xulosa.....	
II BOB. SURXONDARYO TOPONIMLARINING LINGVISTIK XUSUIYATLARI	
2.1. Surxondaryo toponimlarining o‘rganilish tarixi.....	
2.2. Angor toponimining etimologik tahlili.....	
2.3. Angor tumani toponim va mikrotoponimlarining leksik xususiyatlari	
II bob bo‘yicha xulosa.....	
III BOB. ANGOR TUMANI TOPONIM VA MIKROTOPONIMLARINING YASALISH XUSUSIYATLARI	
3.1. Toponimlar shakllanishining rang-barangligi.....	
3.2. Angor tumani toponimlarining hosil bo‘lish asoslari.....	
3.2.1. Antroponim asosli toponimlar.....	
3.2.2. Etnonim asosli toponimlar.....	
3.2.3. Belgi bildiruvchi so‘z asosli toponimlar.....	
3.2.4. Litonim asosli toponimlar.....	
3.3. O‘zbek toponimiyasida nom yasalish masalalari.....	
3.3.1. Toponimlarning morfologik usulda yasalishi.....	
3.3.2. Toponimlarning sintaktik usulda yasalishi.....	
III bob bo‘yicha xulosa.....	
XULOSA	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon tilshunosligidagi onomastik tadqiqotlarda miqdor jihatidan ortib borayotgan toponimik birliklarga nafaqat shaklan, balki ularning semantik jihatdan tematik guruhlarini, etimologiyasi, nominative funksiyasi va strukturasi, joy nomlaridagi xalqning etnomadaniy xususiyatlarini aniqlashga ham tobora ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Toponimlarning dunyo tilshunosligidagi atoqli otlar tizimida tutgan o‘rni muhim ahamiyat kasb etishi dalillab berildi. Natijada sotsiolingvistik, pragmalingvistik, antropotsentrik va lingvokulturologik aspektlarda tadqiqot prinsplari takomillashib, toponimlarning til, millat va madaniyat birligini aks ettirishi haqidagi yangicha qarashlar ilgari surildi.

Dunyo tilshunosligida toponimika sohasi rivojlanib borayotgan ilmiy yo‘nalishlarning biriga aylandi. Joy nomlari xalqning ruhiy madaniyati, siyosiy va iqtisodiy holati asosida shakllanishi etnolingvistik, etnomadaniy, sotsiolingvistik talqin etish imkoniyatlari ochildi. Suv obyektlari, yer va uning geografik joylashish o‘rni, tabiati, shahar, mahalla, qishloq, xalq va ularning etnik tarkibi haqida boy lingvistik, etnografik, topografik va tarixiy ma‘lumotlar beruvchi barcha toponimik birliklarni yangi lingvistik paradigmalar asosida psixolingvistik, semasiologik, onomasiologik, etimologik, kognitiv va konseptual aspektlarda tadqiq qilishga e‘tibor qaratildi. Shu asnod muayyan hududdagi areal leksik birliklardan hosil bo‘lgan toponimlarning onomastik tadqiqi boshqa yerdagi joy nomlarining xususiy jihatlarini isbotlash imkoniyatini beradi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin joy nomlariga e‘tibor kuchaydi, yangi geografik obyektlar milliy mafkuramizga mos holda nomlana boshlandi. “Ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma‘naviy saviyamizni yaqqol ko‘rsatadigan o‘ziga xos mezondir”¹.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи) // «Халқ сўзи» газетаси, 2019 й., 22 октябрь № 218 (7448).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida so'ngi vaqtlarda muayyan hududning toponimik tizimni maxsus tadqiq etish maqsadida ilmiy ishlar olib borildi. Shu jumladan, G.Zakirova, A.Garayeva, A.Galsova, M.Surkova va A.Yegurnovalarning², turkiy tillarda K.Konkobayev, K.Risbergenova, R.Xaziyev, R.Sadikova, O.Maxmadjonov³, o'zbek tilshunosligidatadqiqotlarda esa toponimlar T.Nafasov, Z.Do'simov, J.Latipov, S.Bo'riyevlarning ilmiy ishlarida struktur-semantik, tarixiy-lingvistik jihatdan o'rganildi⁴. Toponimlar tadqiqi qoraqalpoq tilshunosligida ham olib borilgan bo'lib, bu borada Q.Abdimuratov, M.Qurbanov G.Mambetovalarning tadqiqotlarini takidlab o'tish o'rinli⁵. Ta'kidlanganlar orasida Surxondaryo mikrotoponimlarini o'rgangan Y.Xo'jamberdiyev hamda X.Xolmo'minovning hudud nomlarini o'rganishdagi ulkan xizmatlarini alohida qayd etish lozim. Biroq tilga olinga tadqiqotlar sirasida Angor tumani toponimiyasining mutlaq o'rganilmaganligi tadqiqotimiz dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Angor tumanidagi joy nomlarini monografik asosda onomastik tizimiga keltirish orqali ularning semantik xususiyatlari, yasalish usullari va tuzulishini aniqlash hamda indekatorlarning ma'no-mavzuviy turlari, ma'no ko'chish jihatlarini ochib berishdan iborat.

² Закирова Г. К. Историко-лингвистический анализ ойконимии Казанского ханства: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Казань, 1998. – 24 с.; Гараева А. К. Историко-лингвистический анализ топонимов Елабужского уезда: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Елабуга, 2004. – 24 с.; Гальцова А. С. Лингвокультурологический потенциал Петербургской топонимии: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2011. – 22 с.; Суркова М.С., Егурнова А.А. Историко-лингвистический анализ топонимов Великобритании // Успехи современного естествознания. – М., 2012. –№5. – С. 140-141.

³ Конкобаев К. Топонимия Южной Киргизии: Автореф. дис... канд. филол. наук. – М., 1983. – 24 с.; Рысбергенова К.К. Историко-лингвистический анализ топонимов Южно-Казахстанской области: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Алматы, 1993. – 20 с.; Хазиев Р.И. Историко-лингвистический анализ ойконимии Юго-Восточного Закамья Татарстана: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Казань, 2000. – 25 с.; Садыкова Р.К. Историко-лингвистический анализ тюрко-татарской топонимии Ульяновской области Российской Федерации: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Казань, 2003. – 25 с.; Махмаджонов О.О. Историко-лингвистическое исследование топонимии Гиссарской долины Таджикистана: Автореф. дис... док. филол. наук. – Душанбе, 2010. – 53 с.

⁴ Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: 1968. – 24 с.; Дусимов З. Топонимы Северного Хорезма: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 20 с.; Латыпов Ж. Топонимия города Маргилана и его окрестностей: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 36 с.; Бўриев С. Ургут тумани микропонимларининг лексик-семантик тахлили: Филол. фан. ном... дис. автореф. – Тошкент, 2010. – 23 б.

⁵ Абдимуратов К. Топонимика Каракалпакии: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Нукус, 1966; Курбанов М. Қорақалпоқ тилидаги географик терминларнинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. фан. ном... дис. автореф. – Нукус, 2011; Мамбетова Г. Қарақалпақстанның арқа районлары гидронимлери: Филол. илим. филос. док.(PhD)... дис. – Нәкис, 2018. – Б. 53.

Tadqiqotning vazifalari:-tuman toponimlarini yig'ish, ularning leksik-semantik xususiyatlari va grammatik tuzilishini tasniflash;

- toponimlarning nomlanishidagi etnolingvistik, tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillarni aniqlash;

- toponimlarning yasash usullari va grammatik tarkibini yoritish;

- toponimlarni semantik guruhlariga bo'lish orqali tasniflash ,

Tadqiqotning obyekti sifatida Angor tumanidagi toponimlarning nomlanishi va qiyosiy tasniflash uchun ba'zi hududlarga oid toponimik nomlar olindi.

Tadqiqotning predmetini tuman toponimlarining semantic xususiyatlari, ularning grammatik tuzilishi tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur dissertatsiyaning ilmiy yangiligi sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- Tadqiqotda ilk marotaba Angor tumani toponimlari va mikro toponimlari semantik guruhlariga ajratilib, lingvistik tahlil qilindi;

- Angor tumanidagi toponimlarning hosil bo'lish asoslari o'rganildi;

- Antroponim asosli toponimlar to'plandi va tahlil qilindi;

- Angor tumanidagi litonim asosli toponimlar tahlil qilindi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda lingvistik tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-etimologik metodlaridan foydalanadi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajm 72 sahifani tashkil etadi.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA ONOMASIOLOGIK SATH VA UNING TADQIQI

1.1. Nomshunoslikning tadqiq ko‘lami va onomastik tadqiqotlar sharhi

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, *astronimiya* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan *mifonimlar* xayoliy – to'qima obyektlarning nomlarini bildiradi.

Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o'rganilish darajasiga qarab onomastika *adabiy va dialektal onomastika*, *odatdagi (amaliy) va poetik onomastika*, *zamonaviy va tarixiy onomastika*, *nazariy va amaliy onomastika* kabi turlarga bo'linadi.

Shulardan biri bo'lgan nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli

nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning *qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik* xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganadi.

Amaliy onomastika horijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi, transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "*begona*" nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, horijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi. Til ijtimoiy hodisalardan biri bo'lib, unda xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy qarashlari, milliy rasm-rusumlari, turmush tarzi, orzu-istaklari o'z ifodasini topadi. Tilshunoslikda shunday lug'aviy qatlamlar borki, ular ma'lum bir xalqning hayoti, urf-odati, tarixi bilan bog'liqdir. Bunday lug'aviy qatlamlarni o'rganish shu xalq tarixi va etnografiyasini o'rganishni taqozo qiladi.

Nomshunoslik (ismshunoslik, toponimika) har bir xalq tarixi, etnografiyasi ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan bog'lanib ketadi. Kishilarga va joylarga nom berish turli davrlarda xalqning ijtimoiy hayot sharoitlari, jamiyatda tutgan o'rni, uning madaniy saviyasi, dunyoqarashi, urf-odati, rasm-rusumlari bilan bog'liqdir. Nomlar tabiat va jamiyatdagi muayyan o'zgarishlar bilan bog'liq holda, ma'lum qonuniyatlar asosida vujudga keladi va xalq tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Atoqli otlar tarixchilar, geograflar, tilshunoslar uchun ham boy material beradi. Shu jihatdan qaraganda, tarixiy onomastika o'ziga xos xususiyatga ega.

Hayot taraqqiy etgan sari kishilarning mafkuraviy, diniy qarashlari, siyosiy hayoti atoqli otlarda aks etganini ko'ramiz. Ayrim tarixiy kitoblarni kuzatsak, eramizdan ilgari davrda paydo bo'lgan atoqli otlarga duch kelamiz. Qadimiy davr atoqli otlari o'sha davrda hukmron bo'lgan zardushtizm mafkuravini, keyinchalik buddizm diniy qarashlarini ifodalagan. O'rta Osiyoga islom dini kirib kelishi bilan esa bu din bilan bog'liq bo'lgan ko'plab nomlarning paydo bo'lganini ko'ramiz.

Ammo, onomastikada xalq diniy qarashlarining ifodalanishiga turli davrlarda turli xil munosabatda bo‘lib kelingan. Nomlarda xalq diniy qarashlarining ifodalanishini tabiiy hol deb tushunish lozim. “Din odamlarni birlashtiruvchi, insof va adolatga chaqiruvchi ulug‘ g‘oya” sifatida ham xalqning qalbidan mustahkam joy olgan edi. Ayniqsa, islom dinining muqaddas kitobi “Qur’on” va “Hadis”larning mazmunida musulmon diniga kiruvchi xalqlar orasida ko‘plab xalqchil va demokratik g‘oyalarning ilgari surilishi bu dinning xalq orasida yashovchanligini ta'minlagan.

Tilshunos olimlarning fikrlariga ko‘ra “o‘tmish onomastikasini o‘rganish bilan bog‘liq murakkab muammolardan biri “tarixiy nomlar” tushunchasini konkretlashtirish va tarixiy nomlar majmuini (tarixiy norma) zamonaviy (hozirgi davr) ismlar fondidan (sinxronik, ya’ni davriy norma) farqlash, chegaralash masalasidir. Chunki tarixiy (qadimiy) deb yuritiluvchi ko‘pgina nomlar hozirgi davr o‘zbek onomastikasida iste’molda mavjuddir. Bunday nomlar tilda paydo bo‘lish davri va yashash davriga, ya’ni stajiga ko‘ra tarixiy bo‘lsa-da, qo‘llanilishi, hayotiylikiga ko‘ra zamonaviy hamdir.

Demak, bunday nomlar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga ega. Chunonchi, *Amir, Temur, Muhammad, Sulton, Bobur, Ulug‘bek* ismlari ham qadimiy va tarixiy, shuningdek, zamonaviy hamdir. Ismning tarixiy ekanini nomning qadimda (o‘tmishda) mavjud bo‘lgani, uning ma’lum o‘tmish tarixiy yozma manbalarda yoki folklor tilida uchrashi kabi xususiyatlar belgilaydi. O‘tmishda uchragan nomning hozirda ishlatilmasligi nomning iste’moldan chiqqan, unutilgan, hatto “o‘lik” ismlar qatoriga kiritadi. Mana shunday nomlarning ma’no va etimologik xususiyatlarini o‘rganish tarixiy antroponimiya tadqiqotlari uchun muayyan ahamiyatga ega. Chunki bu nomlarda har tomonlama tarixiylik belgisi kuchlidir.

Tadqiqotchi R.Nuriddinova nomzodlik dissertatsiyasining “Onomastika terminlarining mavzuviy tasnifi” deb nomlangan birinchi bobidagi “Onomastika sohasining ilmiy yo‘nalishlarini ifoda etuvchi terminlar” bo‘limida atoqli otlarni o‘zaro farqli tiplarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo‘nalishlarni anglatuvchi terminlar

sirasiga antroponimika, onomastikaning ilmiy sohalarini tarixiylik, zamonaviylik nuqtai nazaridan nomlovchi terminlar sifatida *tarixiy onomastika*, *o'zbek tarixiy nomshunosligi*, *o'tmish nomshunosligi* kabi terminlarni misol sifatida ko'rsatadi. Olima "Onomastik birliklarning tarixiy (davriy) mansubligiga oid tushunchalarni ifoda qiluvchi terminlar" bo'limida esa har qanday tildagi onomastik birliklar bir davrning mahsuli emasligi, balki tilda qadimiyatdan tortib, shu kunga qadar yuzaga kelgan lisoniy hodisa ekanligini qayd etib, o'zbek onomastikasida onomastik birliklar tarixiylik davriy mansubligiga ko'ra ikki katta guruhga bo'lib tadqiq etilayotganligini e'tirof etadi: 1.Tarixiy nomlar. 2.Yangi zamonaviy nomlar. Shunga ko'ra tarixiy nomlarni atash uchun tilshunoslikda quyidagi terminlardan foydalanilayotganligini aniqlagan. Tarkibida "tarixiy" so'zi qatnashuvchi terminlar: tarixiy nomlar, tarixiy antroponimiya, tarixiy ismlar; tarkibida "qadimgi", "azaliy" so'zlari qatnashgan terminlar: qadimgi nomlar, qadimiy yahudiycha ismlar, azaliy nomlar, qadimiy yunoncha ismlar⁶. Bizning fikrimizcha, R.Nuriddinova qo'llaganidek "tarixiy nomlar", "yangi zamonaviy nomlar" tarzida emas, ularni "tarixiy onomastik birliklar" va "zamonaviy onomastik birliklar" birikmali terminlari bilan atash ma'qul. Chunki onomastika sohasining tarixiylik va zamonaviylik xususiyatini inobatga olish lozim.

Bu haqda o'zbek tarixiy antroponimiyasini tadqiq qilish ishlarini boshlab bergan va unga munosib hissa qo'shgan tadqiqotchi N.Husanov "O'zbek antroponimlari tarixi" asarida o'zbek nomshunosligi va tarixiy antroponimiya muammolari haqida fikr yuritir ekan, o'zbek tilidagi tarixiy nomlar ma'lum davr va manbalar asosida o'rganilmaganligini, o'zbek nomshunosligi bo'yicha darslik va qo'llanmalarining yo'qligi bu sohani tilshunoslikning boshqa bo'limlari qatori oliy maktablarda sistemali ravishda o'qitish va o'rgatishga imkon bermayotganligini alohida ta'kidlaydi. U bizning mavzumizga doir antroponimlar tarixi haqida fikr yuritib, ismlar tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalalardan biri tarixiy ismlar tushunchasini konkretlashtirish va tarixiy nomlar majmuini

⁶ Nuriddinova R. O'zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Filol. fan. nomz. ...diss. – T., 2005. – B. 9-10.

zamonaviy ismlar fondidan farqlash, chegaralash masalasini o‘rtaga qo‘yadi⁷. Bu turkumdagi nomlarning bir qismi hozirgi o‘zbek ismlari fondida mavjudligi, qo‘llanishi, ular ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga egaligini *Ulug‘bek, Tangriberdi, O‘lmas, O‘tkir, Temur* ismlari misolida asoslab, bunday nomlar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xarakteriga ega ekanligini isbotlab bergan. Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘zbek tarixiy nomshunosligi sohasi o‘zbek onomastikasining o‘tmish tarixini, nomlarning paydo bo‘lish asoslarini, nomlar lug‘aviy fondining shakllanish manbalarini va unda milliy-lisoniy o‘ziga xosliklarning paydo bo‘lish omillarini, bunda muhim rol o‘ynagan lisoniy hamda nolisoniy asoslarni atroflicha o‘rganish kerak. Quyida zamonaviy onomastika bo‘yicha yetarli ma’lumotlar mavjudligini hisobga olib, tarixiy onomastika va uning tarkibiy qismlarini o‘rganuvchi bo‘limlar nomlarini sharhlaymiz:

1. Tarixiy onomastika.
2. Tarixiy antroponimika.
3. Tarixiy toponimika.
4. Tarixiy etnonimika.

Bunday onomastik tushunchalarining o‘zaro farqli va o‘xshash belgixususiyatlarini aniqlash va bilish tarixiy onomastikani tadqiq etishda va bu soha bo‘yicha tadqiqot ishlari olib boruvchi tadqiqotchilar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Hayot taraqqiy etgan sari nomlar ham o‘zgarib, saralanib boradi. O‘zbek tarixiy nomshunosligi olida turgan dolzarb masalalardan biri bu nomlarni konkret aniqlash va ularning lisoniy hamda etimologik xususiyatlarini o‘rganishdir.

Tildagi atoqli otlar lingvistik va nolingvistik jihatdan ham, tuzilish jihatidan ham murakkabdir. Bu nomlar til lug‘atidagi murakkab leksik-semantik tizimlar, guruhlar yig‘indisidir.

⁷ Husanov N. O‘zbek antroponimlar tarixi. – T., 2014. – B.12

Tarixiy onomastika materiallarini har tomonlama tahlil qilish, ularning lisoniy va nolisoniy mohiyatini ochish uchun xilma-xil usul va aspektlarda tadqiq olib borish lozim bo'ladi.

Nomlarni lingvistik va nolingvistik jihatdan o'rganish ularning materialini ma'lum usullarda tasnif qilishni talab qiladi. Prof. A.V.Superanskaya bu haqda: "Atoqli otlar tahlili va bayonini ma'lum klassifikatsiyalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Chunki onomastik ishda u tadqiqotchining asosiy harakat programmasi bo'lib xizmat qiladi. Ba'zan ishning asosi-shu tasnifning o'zi bo'lishi ham mumkin. Onomastik hodisalarning turli-tumanligi tufayli atoqli otlar ustida o'tkaziladigan klassifikatsiya parametrlari ham turli xil bo'lishi tabiiydir", deb yozgan.

Bunday tasnif qilishning ham o'z tarixi, qonuniyatlari bor. Olimlar uzoq yillar davomida turli xil onomastik tasniflarni yaratib, bu borada ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Ye.M.Chernyakovskaya: "Qanday qilganda onomastika materiallari tarkibini to'g'ri va aniq tasvirlab berish mumkin? Ushbu savolga javob topish uchun toponimiya va antroponimiya materiallarini tasnif qilish zarurati ham tug'iladi"⁸, - deb yozgan edi.

Onomastika uzoq yillar tilshunoslikning bo'limi sifatida tan olinmadi va bu sohaga tarix, geografiya va boshqa fanlar uchun yordamchi vosita sifatida qarab kelindi. Chunki tildagi atoqli otlarning yuzaga kelishi turdosh otlarga nisbatan nomning nolisoniy tomonlari bilan ko'proq bog'langan bo'ladi. Onomastika tilshunoslikning asosiy bo'limi sifatida tan olingandan keyin antroponimiya va toponimiya materiallarini klassifikatsiya qilish ishi bilan ko'plab olimlar shug'ullandi.

Onomastik tasniflarni ba'zi olimlar maxsus o'rganganlar. Polyak tilshunosi V.Tashitskiy, rus tilshunoslari A.V.Superanskaya, Ye.M.Chernyaxovskayalar bu masala bilan maxsus shug'ullanishgan.

⁸ Черняховская Е.М. Сборник Развитие методов топонимических исследований. –М., 1970. –с.55.

A.V.Superanskaya bir qator ilmiy ishlarda, xususan “Obshaya teoriya sobstvennix imen” kitobida atoqli otlar tasnifiga maxsus to‘xtalib o‘tadi.

A.V.Separanskaya atoqli otlar tasnifiga to‘xtalib, ularni ikki asosiy guruhga bo‘lishni tavsiya qiladi: 1) lingvistik tasniflar; 2) lingvistik bo‘lmagan tasniflar.

A.V.Separanskaya “Otlarning lingvistik va ekstralingvistik xarakteristikasiga diqqat qilgan holda quyidagi tomonlarni asosga oladi:”

1. Nomlarning atalayotgan ob'ektlarning xarakteri bilan bog‘liq bo‘lagn tasnifi.

2. Tabiiy paydo bo‘lgan nomlar va yasama nomlar

3. “Mikro” va “makro” liniyalari bo‘yicha nomlar tasnifi.

4. Nomlarning struktural tasnifi.

5. Xronologik tasnif

6. Nomlarning ma’no yaqinligigiga ko‘ra tasnifi

7. Nomlarning atalayotgan ob'ekt ma'nosiga bog‘liq bo‘lgan tasnifi

8. Til – nutq dixotomiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan tasnif9. Stilistik va estetik tasnif

Bu sohada turkologiyada ham salmoqli ishlar qilindi, xususan, o‘zbek, qozoq, turkman, tatar, boshqird, ozarbayjon, tillari antroponimiyasi va toponimiyasiga oid qator ilmiy ishlar yozilganki, ularning har biri to‘plangan materiallarning xususiyatidan, o‘zlari ish olib borayotgan tilning xususiyatidan, shuningdek har bir xalq hayoti taraqqiyotining o‘ziga xos tomonlaridan kelib chiqqan holda nomlarni tasnif qilishgan va muayyan guruhlarga ajratgan.

Biz onomastika, xususan tarixiy onomastika haqida ularning ilmiy tadqiqot ishlariga tayanib ish tutamiz. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, har qanday holda ham qanday tasnifning foydali va o‘rinli ekanini til materialining o‘zi belgilaydi. Shu sababli har qanday atoqli ot guruhlarining barchasi uchun bir xil, doimiy tasniflar bo‘lishi qiyin. Atoqli otlar tasnifida quyidagi usullar tilshunos olimlar jamoasi tomonidan ma’qullangan:

1. Atoqli otlarni nom qanday obyekt (subyekt ham)ni ifodalashiga ko‘ra tasniflash. Bugungi kunda onomastik tadqiqotlarda ko‘p qo‘llanilayotgan

antroponimiya, toponimiya, astronimlar, zoonimlar, taonimiya, xremotonimlar, ideonimlar, dokumentonimlar, ergonimlar, faleronimlar singari terminlar va ular zaminida yotuvchi atoqli otlar mazkur tasnifning mahsuli hisoblanadi.

2. Nom ifodalayotgan obyektning hajmiy xususiyatiga ko'ra atoqli otlar tasnifi: makrotoponimlar, mikrotoponimlar ushbu tasnifga kirgan.

3. Atoqli otga asos bo'lgan apellyativ so'zning tarixiy manbai, ya'ni qaysi tilga mansubligiga ko'ra nomlar tasnifi.

Umumturkiy nomlar, o'zbekcha nomlar, fors-tojikcha nomlar, arabcha nomlar, mo'g'ulcha nomlar, xitoycha nomlar deb yuritilayotgan tushunchalar mana shu tasnifga asoslangandir.

4. Nomlarni tarixiy-xronologik printsipl asosida tasniflash. Bu tasnifda nomlarning yuzaga kelishi ko'zda tutilada va nom shu nuqtai nazardan ma'lum qatlamlarga bo'linadi. Chunonchi: eng qadimgi qatlam, qadimiy qatlam, tarixiy qatlam, yangi qatlam yoki zamonaviy qatlam kabi.

Onomastik nomlarni yuqoridagi tasnifga tayanib o'rganish tarixiylik nuqtai nazardan albatta nisbiydir.

5. Nomlarning lug'aviy-morfologik asosi (manbai)ga, ya'ni nomning qaysi so'z turkimiga tegishliligiga ko'ra ham tasniflash mumkin.

O'zbek toponomiyasiga oid tadqiqotlarda "fe'l toponimlar" termini uchrab turadi. Sifat va olmosh toponimlar haqida ham fikr yuritish mumkin.

6. Onomastik materialni nomning sturukturasiga qarab tasnif qilish asosida o'rganish mumkin. Bunday tasnif qilish onomastikaning toponimika sohasida keng tarqalgan. Atoqli otlarni grammatik sturukturasiga ko'ra a) sodda nomlar; b) qo'shma nomlar; v) juft nomlar; tarkibli (birikmali) nomlar singari ajratish mumkin.

7. Atoqli ot materiallarini etimologik tahlillar nuqtai nazaridan tasniflash mumkin. Bu yo'l bilan: a) ma'nosi aniq (tushunarli) nomlar, b) ma'nosi noaniq (tushunarsiz) nomlar belgilanadi.

8. Onomastik materialni zamonaviylik nuqtai nazaridan o'rganish va tasniflash mumkin. Bu yo'l bilan hozirda: a) o'lik, nofunktsional nomlar;

b) funktsional yoki tirik (hayotiy) nomlarga ajratiladi. Ularni “tirik nomlar”, “o‘lik nomlar” singari terminlar bilan ham atash mumkin. Chunonchi, A.Navoiy asarlarida uchraydigan Yasrib (Makkaning eski nomi) Kesh, Kash (Shahrisabzning eski nomi) nomlari o‘lik atoqli otlar sirasiga kiradi.

9. Onomastik birikmalarni, jumladan, antroponim, toponimlarni uslubiy-nominatsiya xususiyatlariga ko‘ra ham guruhlash mumkin, masalan, badiiy asar tilidagi har bir so‘z jumladan nomlar ham ma‘lum darajada uslubiy vazifa bajaradi. Ayniqsa, o‘zbek klassik adabiyoti tilidagi nomlar hilma-xil vazifalarda qo‘llangan. Shu nuqtai nazardan ularni: a) neytral-nominativ vazifali nomlar; b) uslubiy vazifa bajaruvchi nomlar; v) aralash vazifa bajaruvchi nomlar singari guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. AToqli otlarning uslubiy ishlatilishi o‘rganish, bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

10. Nomlar fondida, ayniqsa o‘zbek tarixiy onomastikasida real, ya‘ni hayotda mavjud va noreal, ya‘ni afsonaviy to‘qima, diniy-mifik nomlar uchraydi. Bu nomlarni ular mazmunidan kelib chiqqan holda ularni: a) hayotda konkret mavjud bo‘lgan, ya‘ni real nomlar; b) noreal, ya‘ni hayotda mavjud bo‘lmagan ramziy atoqli otlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan onomastik tasniflar qo‘llanilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ba‘zilar qo‘llanish jixatidan universal harakterga ega bo‘lgani holda, ba‘zi birlari esa ma‘lum darajada chegaralangan bo‘ladi. Tadqiqotchi o‘z ishida ulardan qaysi birini qo‘llashi to‘plangan materialning xususiyatiga qarab belgilanadi. Nomlarni tasnif qilishda lingvistik, eksralingvistik nuqtai nazarga, shuningdek, ham lingvistik, ham ekstralingvistik asosga tayanish mumkin. Shu bilan birga, atoqli otlarni tasnif qilishda yana bir nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ish tutish imkoni borligini qayd etmoqchimiz. Bu keyingi paytlarda nomshunoslik ishlarida qo‘llana boshlagan “onomastik birliklar” tushunchasi bilan bog‘liqdir.

Atoqli otlarni onomastik birliklar nuqtai nazaridan tasniflash yuqorida qayd qilingan tasniflarning birinchisiga, ya‘ni nom qanday obyektни anglatib kelishiga ko‘ra tasniflashga to‘g‘ri keladi.

Onomastika, jumladan o‘zbek *onomastikasi tarix, etnografiya, genealogiya, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya* kabi bir qator fanlar bilan uzviy aloqador fan sanaladi.

O‘zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar orasida eng muhimlaridan biri E.Begmatovga tegishlidir. Mazkur tadqiqot o‘zidan keyin yaratilgan ko‘pgina ishlar uchun dasturul amal vazifasini o‘tagan. Shuningdek tilshunosligimizda T.Enazarov, A.Abduazizov, N.Xusanov, R.Xudoyberganov, M.Rasulova, S.Kenjaeva, I.Xudoynazarov, D.Yuldoshev, S.Rahimov, Sh.Yoqubov, N.Mo‘minov kabi olimlarning qator tadqiqotlari mavjud bo‘lib, ularning lingvistik qarashlarini e’tirof etgan holda aytish mumkinki, bu ishlarning e’tibor markazida inson va uning ismi, ismning shaxs dunyoqarashiga ta’siri, insonning olam va odam bilan o‘zaro aloqasini aniqlash yotadi.

Keyingi davrlarda antroponimlarning antroposentrik tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham yaratildiki, bu nomshunoslikning lingvokognitiv jihatdan o‘rganishga qiziqishning oshganligini ko‘rsatadi.

Fikrimizning asosi sifatida D.Xudoyberganova⁹, N.Ahmadjonov¹⁰, D.Yo‘ldoshev¹¹ kabi olimlarning ishlarini keltirishimiz mumkin. Onomasiologik tadqiqotlarni amalga oshirishda antroponimlar quyidagi guruhlar asosida o‘rganiladi:

1. Hayvonlar, qushlar va boshqa jonzotlar nomiga asoslangan ismlar: Sherbek, Qumri;
2. O‘simliklar, daraxtlar hamda ulardan olinadigan mahsulot va mevalar nomi: Rayhon, Sumbul, Nulufar, Ra‘no;
3. Tabiiy joylar va o‘rinlar, suv obyektlari hamda suv bilan bog‘liq leksemalarga asoslangan kishi ismlari: Madina, Chaman, To‘lqin va boshqalar.

⁹ Худойбергано́ва Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талкини. Филол.фан.док.дисс.автореф. – Тошкент, 2015. 72 б.

¹⁰ Ахмаджоно́в Н. Бадиий услубда қўлланилган прецедент номларнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.бўйича фалс.док. дисс.автореф. – Қарши, 2021.

¹¹ Юлдоше́в Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи: филол.фан.док.дисс.автореф. – Тошкент, 2021. 72 б.

4. Samo va samo jismlari nomi bilan bog'liq leksemalar: Oybarchin, Yulduz, Mohinur, Oftoboyim kabi;

5. Fasllar, oylar, kunlar nomi va aynan fasl, oy yoki kun doirasidagi ma'lum bir paytni anglatuvchi leksemalar, fasllardagi holatni anglatuvchi so'zlarga asoslangan antroponimlar: Bahora, Navro'z, Chorshanbi, Hayitgul, Bozor kabi;

6. Tabiiy hodisalar, nur va olov tushunchalari nomi: Oloviddin, Yorqinoy, Nurbek, Munavvar, Uchqun v.b;

7. Kasbi-kor, mavqe, mansab, unvon, ish qurollari nomlari: Dehqon, Sayyod, Amir, Askar, Qilich, Bolta kabi;

8. Qabila va elat nomlari: Barlos, Qozoqboy, O'zbekoyim, O'zbek, Qirg'izboy, Oybek, Oybeka, Oybika, Mitanboy.

9. Ba'zi tabiiy yoki ijtimoiy hodisalar, holatlar bilan bog'liq nomlar: Ofat, Ozodbek, O'tbosar.

10. Rasm-rusm, urf-odat, turli tushunchalar, tilaklar, ijobiy xislatlar bilan bog'liq leksemalar: Poyon, Sunnat, Qizlarbas Bayram, Tursin, Davlat kabi;

11. Qarindoshlik, qondoshlik ma'nolarini anglatuvchi leksemalar: Otajon, Otabek, Og'abek, O'g'iloy, Boboqul v.b;

12. Sonlar va miqdoriy ma'noli leksemalar: Oltmishboy Oltiboy, To'qsonboy;

13. Jismoniy belgilarni, rang-tusni, ko'rinishni ifoda etuvchi leksemalar: Xolida, Norxol, Nortoji, Qorasoch, Nafisa, Ortiq, Go'zal, Latofat;

15. Turli mustahkam tabiiy ma'danlar, matolar, kiyim-kechak, taqinchoqlar, qimmatbaho toshlarni anglatuvchi leksemalar: Toshpo'lat, Po'lat, Temurbek, Gavhar, Kumush, Feruza, Javohir;

16. Ollohning nomlari, diniy tushunchalar va tasavvurlar, payg'ambarlar nomlari bilan bog'liq leksemalar: Xudoyberdi, Egamberdi, Xudoyqul, Mehroj, Ibodat, Malak va h.k.z. Shuningdek, genetik hosil bo'lishi jihatidan quyidagicha tasniflash mumkin;

1. O'z qatlamga oid: Go'zal, Botir;

2. O‘zlashgan qatlamga oid. O‘zlashgan qatlamga oid antroponimlarni ham ichki guruhlariga ajratishimiz mumkin. *Arabcha*: Rajab, Rasul, Abbos; *forscha*: Zebo, Jahongir, Gavhar. O‘zlashgan qatlamga oid kishi ismlari asosan, *arabcha+forscha* (Alisher), *forscha+arabcha* (Mohinur), *o‘zbekcha+arabcha* (Bekzod), *o‘zbekcha+forscha* (Bekmurod) tarkibida namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlash o‘rinliki bugungi kunda ko‘pgina antroponimlar istemolda emas yoki kam qo‘llaniladi. Chunki jamiyatning rivojlanishi, albatta, insonlar tafakkuriga, dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazmoqda. Keyingi vaqtlarda urfga aylangan zamonaviy ismlar ham qandaydir asos bilan qo‘yilmoqda. Ammo, masalaning bu tomonini tadqiqotimiz uchun vazifa qilib olmaganimiz bois bo‘lishini inobatga olib, kengroq to‘xtalmaslikka qaror qildik.

1.2. Onomasiologik tadqiqotlar tizimida toponimikaning o‘rni

Ma’lumki, onomastik birliklar orasida eng kun o‘rganilgani toponimlardir. Toponimlar asosan apellyativlar asosida hosil bo‘ladi. Apellyativ lotincha arrelliativ – turdosh ot so‘zidanolingan bo‘lib, atoqli otga karama-qarshi qo‘yiluvchi, atoqli ot yasash uchun lisoniy baza bo‘luvchi turdosh ot va boshqa tipleksemalaridir. Toponim so‘zi negizida shakllangan toponimika geografik obyektlar, ya’ni joy ma’nolarini o‘rganib, biror bir yerga atab qo‘yilgan nom qanday qilib paydo bo‘lgan va nima uchun aynan shunday deb ataladi kabi savollarga javob izlaydi, muayyan bir hududda yashaydigan xalqlarning tarixini, etnografiyasini o‘zida aks ettiradi, ularning tili va madaniyatini o‘zida mujassam qiladi. Shunday qilib, tilshunoslikda toponim, toponimiya va toponimika atamalari bir-birini taqozo etadi. Toponim – geografik obyektning, joyning nomi; toponimiya – bu nomlarning yig‘indisi, toponimika – ana shu nomlarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganuvchi sohadir. Toponimikani ba’zan *toponimistika/toponomastika* deb ham nomlashadi¹². Toponimika – onomastikaning keng qamrovli sohasi bo‘lib o‘z ichida *oronim* (tog‘, cho‘qqi, dovon, tepalik nomlari),

¹² Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: “Фан”, 2006.

gidronim (okeanlar, daryolar, ko‘llar, kanallar nomlari), *xoronim* (cho‘lliklar, qumliklar, tabiiy maydon nomlari), *oykonim* (shahar, qishloq, mahalla nomlari), *ekklezonim* (maschit, cherkov, monastir nomlari), *nekronim* (mozor, qabriston, muqaddas qadamjolar nomlari), *polinimiya* yoki *urbanomiya* (shahar va qishloqlarning nomlari), *mikrotoponimiya* (kichik ob’ektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o‘tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo‘llar, ko‘priklar va hatto atoqli otga ega bo‘lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar kabilarni ifodalaydi.

Tarixiy antroponimika birikmali termin bilan yondosh lisoniy hodisalar, ya’ni tarixiy antroponim, tarixiy antroponimika, tarixiy antroponimiya haqida N.Mo‘minova o‘z tadqiqoti¹³da batafsil fikr yuritganligi uchun biz tarixiy antroponimikaning asosiy xususiyatlari xususida qisqacha to‘xtalamiz. *Tarixiy antroponimika* – onomastika fanining tarixiy antroponimlarni, ularning vujudga kelishi, shakllanishi, etimologik qonuniyatlari, tarixiy taraqqiyotini o‘rganadigan bo‘limi. Bu bo‘lim jamiyat tarixiy taraqqiyotida shaxs nomlari tizimini jamiyat tarixining dalillari sifatida o‘rganadigan va antroponimik ma’lumotlardan tarixiy manba sifatida foydalanish usullarini ishlab chiqadigan tarixiy fan. Bu fan muayyan davrdagi kishi ismlari tizimining mohiyatini aniq anglash, bu davrdagi ism qo‘yish urf-odatlarini aniqlash, tarixiy faktik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun tarixiy manbalar asosida ish yuritadigan tarixiy onomastikaning bir bo‘limidir.

Tarixiy antroponimiya tarixiy atoqli otlar majmui, *tarixiy antroponimlar* esa o‘tmishdagi kishi ismlaridir. Tarixiy antroponimikaning asosiy o‘rganish obyekti va xususiyatlari quyidagicha:

1. Onomastikaning tarixiy antroponimlarni o‘rganuvchi bo‘limi. Tarixiy antroponimikaning asosan ikki turi mavjud: 1) Nazariy antroponimika. 2) Amaliy antroponimika.

2. Bugungi kunda qo‘llaniladigan va qo‘llanilmaydigan tarixiy va zamonaviy antroponimlarni tadqiq qiluvchi soha. Shaxsni uning ismiga o‘tmish

¹³ Bu haqda qarang: Mo‘minova N. Temuriylar davri antroponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari: Fil. fan. falsafa d-ri diss. – Qarshi, 2021. – B. 33-36.

ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida shakllangan ismlarni o‘rganadi. Tarixiy antroponimika ism, taxallus va laqab, otasmlarni o‘rganuvchi bo‘lim.

Tarixiy toponimika. Tarixiy onomastika fanining tarkibiy qismi bo‘lgan tarixiy toponimikada tarixiy joy nomlari va ularning atalish qonuniyatlari o‘rganiladi. Toponim so‘zi yunoncha *topos* – “joy” va *onoma* – “atoqli ot” so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, u yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan barcha tabiiy-geografik va sun‘iy obyektlarning atoqli otidir¹⁴34. O‘zbek tilshunosligida toponimika sohasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar yaratilganligi va keng miqyoslarda o‘rganilganligi uchun bu sohada ishlatiladigan terminlar ancha miqdorni tashkil etadi. Tarixiy toponimikaga aloqador quyidagi terminlar fikrimizni yaqqol dalilidir:

Tarixiy toponimik areal – biron toponimik hodisa, toponimik areal toponimik regionga nisbatan kattaroq bo‘lishi mumkin.

Tarixiy toponimik kalka (fransuzcha *kalqua* – kalka qog‘oz) nomning mazmuniga xalal yetkazmasdan aynan tarjima qilinishi, masalan, *Qorasuv – Siyob* (*Siyohob*), *Qizilsuv – Surxob* kabi.

Tarixiy toponimik leksema (yunoncha *leksis* – ibora) – atoqli ot rolini o‘ynaydigan, toponimik modelni to‘ldirib turgan so‘z.

Tarixiy toponimik leksika (yunoncha *leksikos* – og‘zaki) – tarixiy toponimlarni hosil qiladigan so‘zlar.

Tarixiy toponimik model (topomodel) – tarixiy toponimlarning hosil bo‘lish formulasi, masalan, ot+ot, ot+fe‘l, ot+ qo‘shimcha.

Tarixiy toponimik muhit (tarixiy toponimik landshaft) – ma‘lum hududda turli davrlarda turli xalqlar tomonidan yaratilgan tarixiy toponimlar majmui.

Tarixiy toponimik o‘zak (topoo‘zak) – tarixiy toponimik leksemaning o‘zak qismi: *Nasaf-lik*, *Dunyo-tepa-li*, *Sayil-goh*.

Tarixiy toponimik hudud – dastlabki tarixiy toponimik va notoponimik ko‘rsatkichlar asosida tadqiqot uchun tanlangan hudud. Masalan, “*Zafarnoma*”

¹⁴ Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – T.: O‘zbekiston, 2014. – B. 28.

asaridagi toponimik hudud, Temuriylar davri toponimik hududi. Tarixiy toponimik hudud tarixiy toponimik arealdan kichikroq.

Tarixiy toponimik tizim – ma’lum hududda muayyan xalq tomonidan yaratilgan toponimlar majmui.

Tarixiy toponimik universalisiya (lotincha *universalis* – umumiy) ko‘pgina tillarga xos bo‘lgan va nom qo‘yish sohasida kishilik tafakkuri ma’lum darajada umumiy ekanini ko‘rsatadigan toponimik hodisa, masalan, geografik terminlardan, antrotoponimlardan, etnonimlardan toponim hosil bo‘lishi; toponimik modellarning umumiyliigi va b.

Tarixiy toponimikon – 1) tarixiy toponimlar lug‘ati yoki ro‘yxati; 2) tarixiy geografik nomlar repertuari (yig‘indisi).

Tarixiy toponimist – tarixiy toponimika bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchi.

Tarixiy toponimiya – tarixiy toponimlar majmui (“toponimlar” degani). – q.

Tarixiy toponimlanish – apellyativning, ya’ni turdosh otning toponimga aylanishi: quduq – *Quduq*, qo‘rg‘on – *Qo‘rg‘oncha*.

Tarixiy toponim – har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi, jumladan, *gidronim, oykonim, oronim, speleonim, xoronim, urbanonim, dromonim, agroonim, drimonim*.

Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar deb ataladi. Ayni zamonda, bu guruhlarining har biri keng ko‘lamli tadqiqotlar uchun manba taqdim etadi. Toponimlar turli asrlar mevasi bo‘lib, uzoq davrlar yashaydi. Qadimiy tillarda qo‘yilgan nom keyingi xalqlar uchun oddiy toponimdan boshqa narsa emas, uning qanday ma’noni anglatishi haqida har doim ham o‘ylab o‘tirishmaydi. Shu o‘rinda toponim terminiga kengroq to‘xtalib o‘tsak.

Dunyoda hamma narsaning nomi bor. “Tog‘” deganda balandmi-pastmi, kattami-kichikmi umuman tog‘ tushuniladi. Tog‘ ham shunday umumiy atama, turdosh ot. Sunday so‘zlarni xohlagan tilga tarjima qilish mumkin. Atoqli ot esa qandaydir bir narsani, predmetni, obyektini bildiradi va odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, Surxondaryo deganda, respublikamizning janubida joylashgan qadimiy, etnografik Termiziylar

yurti tushuniladi, *Samarqand* deganda esa, respublikamizdagi Zarafshon daryosi sohilida joylashgan go'zal tarixiy shahar tushuniladi. Shunday qilib, toponim (geografik nom)– avvalo so'zdir. Biroq u oddiy so'z emas, birinchidan, atoqli ot. Ayni paytda ko'pgina toponimlar, hatto tilshunos olimlar uchun ham tushunarsiz.

Topoiimlarda xalqning o'tmishi, urf-odatlar, boshidan kechirgan turli xil siyosiy-ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlar o'z aksini topgan bo'ladi Shunga binoan toponimiya muayyan til lug'at boyligining muhim tarkibiy kismi, o'tmish voqealari darakchisi sanaladi. O'zbek toponimikasini ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan. O'tgan davr mobaynida o'zbek toponimikasini o'rganish bo'yicha juda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar orasida tanikli geograf olim H.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" nomli monografiyasi alohida o'rin tutadi. Bu asarda geografik nomlar – toponimlarning tarixi, ularning xilma-xilligi va shakllanish qonuniyatlari qisqacha bayon etilgan hamda toponimika fani to'g'risida qisqacha gushuncha berilgan. Asarda ta'kidlanishicha, "joy nomdariga qarab qadimiy savdo yo'llari, qabila va tillarning tarqalishi, eski qal'a va manzillarning o'rinlari, suv va dovonlarning hosiyatlari, foydali qazilmalar, cho'llarda quduklarning bor-yo'qligi, joyning o'simlik, hayvonot va iklimiy xususiyatlari, hunar-kasb, tarixiy voqealar, afsona-rivoyatlar va boshqa xil ma'lumotlarni bilib olamizki, bular hammasi xalq xo'jaligi, madaniyatimiz tarixi uchun juda muhimdir". Asarning oxirida qisqacha toponimik lug'at va tarixiy-geografik nomlar izohining berilishi uning ilmiy-amaliy qimmatini yanada oshirgan. T.Nafasov, S.Qoraev, Z.Do'simov, B.O'rinboev, T.Raxmetov, J.Latipov, T.Enazarov, N.Oxunov, S.Nayimov kabi olimlarning tadqiqotlari tufayli Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Toshkent, Farg'ona, Samarkand kabi vatanimizning ko'plab hududlaridagi toponimlar to'plandi, ularning lingvistik xususiyatlari, tarixi, etimologiyasiga oid muhim ilmiy kuzatishlar amalga oshirildi. O'zbek toponimiyasiga oid dastlabki lisoniy monografik ish T.Nafasov tomonidan bajarilgan edi¹⁵. Mazkur ishda Qashqadaryo viloyati xududidagi toponimlarning nomlanish asoslari,

¹⁵ Нфасов Т.Топонимы Кашкадарьинской области, Автореф. днсс... канд. филол. наук.-Ташкент, 1968.

etimologiyasi, ularning struktural - grammatik tuzilishi va yasalishi masalalari keng va atroflicha tadqiq etilgan edi. Olim keyinchalik faqat Qashqadaryo viloyati toponimlarini o'rganish bilan kifoyalanib qolmay, janubiy O'zbekiston toponimlarining etnolingvistik taxlilini ham amalga oshirdi, "O'zbekiston toponimlarining izohli lugati"ni nashr ettirdi¹⁶. Shuningdek, olimning "O'zbek nomnomasi" (1993), "O'zbek tili toponimlarining o'quv izoxli lug'ati" (2007), "Qarshi shahri mahalla va ko'cha nomlari"(2008), "Qashqadaryo kishloqnomasi" (2009), "Chiroqchinoma" (2010) kabi bir qancha yirik tadqiqotlari o'zbek toponimikasini o'rganishda katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston xududidagi toponimlarning tarixiy-ilmiy tahlilida taniqli geograf olim S.Qorayevning izlanishlari ham alohida o'rin tutadi¹⁷. Bu ishlarda O'zbekiston xududidagi tarixiy va zamonaviy toponimlar qiyosiy-tarixiy yo'nalishda chuqur tahlil qilingan. Olimning doktorlik dissertatsiyasi esa O'zbekiston oykonimlari taxdiliga bag'ishlangan. S.Qorayev toponimik lug'atlar tuzish, nomshunoslikka doir ilmiy-ommabop risolalar, maqolalar yaratish sohasida ham ibratli ishlarni amalga oshirgan. Xorazm vohasi toponimlarining ilmiy-lingvistiktaxdilida prof. Z.Do'simovning xizmatlari kattadir. Olimning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari va monografiyasi xuddi shu mavzuga bag'ishlangan edi. Keyinchalik A.Otajonova Xorazm etnotoponimlarining lug'aviy asoslari, M.Tillayeva esa Xorazm onomastikasining "Avesto" bilan qiyosi mavzulariga oid qiziqarli ishlarni amalga oshirganlar¹⁸. O'.Rajabov esa Xorazmvohasi materiallari asosida toponimik aniqlagich (indikator) larning funktsional-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan nomzodlik ishini himoya qilgan¹⁹.

Shuningdek, Y.Xo'jamberdiyev Surxondaryo viloyati, S.Nayimov esa Buxoro viloyati toponimlarini o'rganish bo'yicha samarali ishlarni amalga

¹⁶ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изохлаи лугати. – Тошкент: Ўкитувчи, 1988. - 290 б.

¹⁷ Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана. АҚД. – Ташкент, 1969. – 25 с; Караев С.К. Топонимия Узбекистана (социоллингвистический аспект). - Ташкент. Фан, 1991. – 132 с.

¹⁸ Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. НДА. ~ Тошкентг, 1997. - 26 б; Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи ("Авесто" ономастикасга киёслаш асосида). НДА. - Тошкент, 2006. - 26 б.; Ражабов Ў.Х. Топонимик индикатор л ар н и нг функционал-семантик хусусиятлари. ИДА. - Тошкент. 2009. - 22 б.

¹⁹ Ражабов Ў.Х. Топонимик индикатор л ар н и нг функционал-семантик хусусиятлари. ИДА. - Тошкент. 2009. - 22 б.

oshirdilar. N.Oxunovning nomzodlik ishi esa Qo‘qon tumanlarining toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan edi²⁰. O‘zbek toponimikasida bajarilgan ayrim tadqiqotlar alohida tuman yoki shahar mikrotoponimlari tadqiqiga bag‘ishlanganligi bilan e‘tiborga molik. Chunki toponimik obyekt tadqiqi qanchalik tor doirada bedgilansa, olingan natijalar, ilmiy xulosalar shunchalik asosli bo‘ladi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda T.Raxmatov, J.Latipov, X.Xolmo‘minov, O‘.Oripov, A.Aslonov, S.Bo‘riyev kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari e‘tiborga molik²¹. A.Turobov esa Samarqand viloyati materiallari misolida etnonim va etnooykonimlarning lisoniy taxlili bilan shug‘ullandi²². O.Begimov toponimlardagi o‘zlashma qatlamni lisoniy tadqiq etishga oid nomzodlik ishini himoya qildi²³. X.Bo‘riyeva esa Toshkent shahrining XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi tarixiy toponimiyasi muammolarini tadqiq etdi²⁴.

O‘zbekistonda toponimik tadqiqotlar ko‘lamining kengayishida T.Enazarovning ham hissasi katta. Olimning nomzodlik ishi Shaxrisabz hududagi joy nomlarining tahliliga bag‘ishlangan bo‘lsa, doktorlik dissertatsiyasi toponimlarning lug‘aviy asoslari va etimologik tadqiq muammolarini o‘z ichiga qamrab olgan²⁵.

Mamlakatimizda toponimikaga doir monografik tadqiqotlar, risolalar, o‘quv qo‘llanmalari yaratishga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Bu o‘rinda S.Qorayevning “Toponimika – joy nomlari haqidagi fan” (1980), “Toshkent toponimlari” (1991), “Toponimika” (2006), M.Mamedovning “Xalq nomlari joy nomlarida” (1981), L.Karimovanning “O‘zbek tidida toponimlarning o‘rganilishi” (1982),

²⁰ Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов. АҚД, - Ташкент, 1978. - 23 с. 46

²¹ Ряхматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей, АҚД, - М., 1973. - 28 с; Латипов Ж. Топонимия города Маргелана и его окрестностей. АҚД, - Ташкент, 1975. - 26 с; Холмумниев Х. Микропонимия Байсунского района и его окрестностей. АҚД - Ташкент, 1993. - 24с; Орипов У. Нурота тумани макро ва микропонимларининг лисоний тахлили, НДА. - Тошкент, 2003. - 22 б.;Аслоиов А.С.Шофиркон тумкали микропошшкяшшнг лингвистик тахяили. НДА, - Тошкент, 2005. - 21 б.; Бўрнев С.Н. Ургут тумани микропонимларининг лексик-семантгас тахдили. НДА. - Тошкент, 2010. - 23 б.

²² Турабов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг тахли и. НДА,- Тошкент, 1999. - 22 б.

²³ Бегамов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашма қатлами. ИДА. Тошкент, 1999. - 27 б.

²⁴ Бўриева Х.А. Тошкент шахрининг тарихий топонимияси (XIX асп охири..XX асп бошлари). ИДА Тошкент,. 2007. - 25 б.

²⁵ Эназаров Т.Ж. Шахрисабз худуди жой номларининг тарихнй-киёсий тадқиқи, ИДА. Тошкент, 1993. 21 б.;

E.Begmatovning “Joy nomlari..ma’naviyat ko‘zgusi” (1998), T.Enazarovning “O‘zbekiston toponimikasi” nomli maxsus kursni o‘qitish metodikasi” (1999), “Toponimlar etimologik tadqiqining ilmiy-nazariy va amaliyusuliy asoslari” (2001), Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi” (2002), “O‘zbekistondagi ba’zi toponimlarning etimologik talqini” (2004), “Nomshunoslik masalalari” (2010), N.Oxunovning “Joylar va nomlar” (1986), “Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari” (1989), A.Otajonovning “Xorazm etnotoponimlari” (1997), Z.Do‘simov va M.Tillayevalarning “Joy nomdarining siri” (2001), “Toponimika asoslari” (2002), A.Turobovning “Samarqand etnonim va etnooykonimlari” (2004), T.Qurbonov, M.Xudoyberdiyevalarning “Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik taxlili va izohi masalalari” (2006), S.Karimov, S.Bo‘riyevlarning “O‘zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida” (2006), B.Qilichevning “Buxoro viloyati toponimlari” (2008), N.Begalievning “Samarqand toponimiyasi” (2010) kabi bir qator ishlarni alohida ta’kidlash lozim.

Umuman olganda, O‘zbekistonda onomastik birliklar orasida eng ko‘p o‘rganilgani joy nomlari – toponimlar bo‘lib, kelgusida bunday tadqiqotlar yanada kengaytirilishi va chuqurlashtiridishi lozim. Shu asosda O‘zbekiston toponimlarining xaritasi, mukam mal ko‘p tomlik izoxli lug‘ati maydonga kelishiga mustahkam zamin hozirlanadi.

1.3. Toponimlarni tasnif qilish usullari

Til lug‘at birliklari, jumladan, toponimlarni ham tasnif etishda ularning lingvistik xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Tadqiq etishda tasnif qilish yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash o‘rganilayotgan ob’ektning asl tabiatini hamda boshqa bir qator o‘ziga xosliklarini aniqlashni yengillashtiradi.

Toponimlarni tasniflash borasida fikr yuritgan S.Qorayevning quyidagi qarashlari e’tiborga loyiq: “Toponim muayyan ma’noni anglatadi, toponimistlar ta’biri bilan aytganda, toponim informatsiyaga ega va u real hodisani aks ettiradi. Toponimlarning ana shu real voqelikni aks ettirishini hisobga olib, ularni qandaydir gruppalariga bo‘lish kerak, albatta. Toponimlarni ana shunday

klassifikatsiya qilish ularning semantik mohiyatini o'rganish ishini osonlashtiradi deb o'ylaymiz"²⁶. Umuman, tilshunoslikda toponimlar tasnifi masalasi asosiy tadqiq ob'ektlaridan biri bo'lib kelgan. Bu borada turli e'tiborga sazovor qarashlar taklif qilinganki, ularda toponimlarni tasnif qilishning eng samarali va qulay yo'llari bayon etilgan. Toponimlarni tasniflash masalasida H.Sharipov²⁷ ning olib borgan tadqiqoti e'tiborga loyiq.

Turkiy tillardan biri bo'lgan qirg'iz tili materiallari asosida tadqiq olib borgan H.Sharipov Qirg'izistondagi joy, suv va tog' nomlarini quyidagi belgilar asosida shakllangan deyish mumkin deb, ularning 1)joylardagi tabiiy geografik sharoit; 2)mazkur joylardagi tabiiy yer osti boyliklari; 3)kishilarning nomlari, ularning yashash sharoitlari; 4) hayvonlar va predmetlarning nomlari singari ko'rinishlarini qayd etgan²⁸. Muallif Janubiy Qirg'izistondagi joy nomlarining struktura jihati bir xil emasligini, nomlar sodda, qo'shma hamda murakkab shakl va xarakterga egaligini ta'kidlab, ular turkiy tillarga xos morfologik, sintaktik va morfologik-sintaktik yo'l bilan yasalganligini uqtirgan. H.Sharipov grammatik nuqtai nazardan nomlarning shakllanishini quyidagicha tasniflashni tavsiya etgan:

I. Sodda nomlar. a) tub so'zlar asosida paydo bo'lgan nomlar. Bu xil nomlar kamroq bo'lsa ham uchraydi. Tub so'z formasidagi toponimlar ko'pincha narsa, predmet nomlari, ba'zan esa qadimgi urug' va qabilalar nomi bilan bog'liqdek ko'rinadi; b) yasama so'zlar zamirida shakllangan nomlar. Bu tipdagi toponimlar ko'plab uchraydi, ularning xarakteri ham har xil bo'lib, turli yasovchi affikslar yordamida paydo bo'ladi.

II. Qo'shma nomlar. 1. Sintaktik usul bilan (ikki va undan ortiq o'zakning birikuvidan) paydo bo'lgan nomlar. Bu xil nomlar materialiga (so'z turkumlariga) ko'ra: a) ot+ot; b) sifat+ot; v) son+ot; g) son+ot+ot; d) ot+fe'l; ye) sifat+ot+ot;) sifat+fe'l+ot. 2. Morfologik-sintaktik usul bilan shakllangan nomlar tarkibida ot+ot hamda sifat+ot, ba'zan ot+sifat ishtirok etgan bo'lib, ularning o'rtasi yoki oxirida yasovchi affiks keladi.

²⁶ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б.11.

²⁷ Шарипов Х. Жанубий Қозоғистон топонимикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 2-сон. – Б.48-52.

²⁸ Қо'rsatilgan maqola. – В.48.

III. Murakkab nomlar²⁹. Maqola muallifi murakkab nomlar sirasiga hozirda soddalashgan, etimologiyasi va semantikasini aniqlash qiyin bo'lgan hamda qisman qo'shma so'z ekanligi sezilib turadigan nomlarni kiritgan.

O'zbekiston toponimlarini tasnif etish borasida Z.Do'simov maqolasi alohida o'rin tutadi. Chunki mazkur maqolada toponimlarni tasnif etish masalasi ilk bor keng ko'lamda tahlilga tortilgan³⁰. Z.Do'simovning qayd etishicha, joy nomlarini leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko'ra tasnif qilish keng tus olgan. Olim toponimlarni leksik-semantik tasnif etishda ikkita munosabat borligini uqtirgan: birinchidan, 1) etnonimlardan vujudga kelgan toponimik nomlar; 2) onomastik nomlar (kishi otlari)dan paydo bo'lgan toponimlar; 3) toifa guruh nomlaridan paydo bo'lgan toponimlar; 4) yer tuzilishi, suv va qurilish inshootlari, o'simliklar dunyosi, aholining kasbi, turli xil voqealar-yig'inlar va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar; ikkinchidan, 1) qabila nomini bildiruvchi toponimlar; 2) millat nomini bildiruvchi toponimlar; 3) kishilar ismiga qo'yilgan toponimlar; 4) kasb-hunarga nisbatan berilgan toponimlar; 5) predmet belgisini ifodalovchi toponimlar; 6) o'simlik (daraxt)lar nomi bilan yuritiladigan toponimlar; 7) el-yurt, vatan nomi bilan bog'langan toponimlar; 8) geografik relyefni ifodalovchi toponimlar³¹. Shuningdek, olim toponimlarni bu tipda tizimlashtirishda guruhlar orasida aniq chegara yo'q ekanligini qayd etgan hamda toponimlarni tasnif etishda tadqiqotning xarakteridan va tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, leksik-semantik printsipdan foydalanish o'rinli ekanligini uqtirgan.

O'zbekiston toponimiyasining yetuk tadqiqotchilaridan biri Z.Do'simov o'zbek toponimiyasi bo'yicha T.Nafasov, L.Karimova, Sh.Qodirovalarning amalga oshirgan ishlari, qolaversa, rus olimasi A.V.Superanskayaning tasniflar borasidagi qarashlaridan kelib chiqib, toponimlarni tasniflash bo'yicha o'zining aniq taklifini bayon etgan. Bu taklif quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Leksik-semantik tasnif.

²⁹ Шарипов Х. Жанубий Қозоғистон топонимикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 2-сон. – Б.48-49.

³⁰ Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 1-сон. – Б. 17-20.

³¹ Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 1-сон. – Б. 17.

1. Etnotoponimlar.
2. Antrotoponimlar.
3. Zootoponimlar.
4. Biotoponimlar.
5. Geomorfologik toponimlar.

Struktur-tipologik tasnif.

1. Affikssiz toponimlar yoki tub toponimlar.
2. Affiksal toponimlar yoki yasama toponimlar.
3. Prefiksal toponimlar.
4. Indikator (aniqlagich)li toponimlar yoki toponim-kompozitlar.
5. Birikmali toponimlar.

I. Xronologik tasnif.

1. Toponim-arxaizmlar.
2. Toponim-istorizmlar.
3. Neotoponimlar³².

Qayd etish lozimki, Z.Do‘simovning mazkur tasnifi toponimlarni izchillik bilan tadqiq etishda uzoq yillardan beri asos-tayanch vazifasini o‘tab kelmoqda. Chunki ushbu tasnif vositasida toponimlarning asosiy lisoniy xususiyatlari ochib berilishi mumkin. Shuningdek, Z.Do‘simovning M.Tillaeva bilan hammualliflikda yaratgan tadqiqotida³³ leksik-semantik jihatdan toponimlarni etnonimlardan vujudga kelgan, onomastik nomlar – kishi otlaridan paydo bo‘lgan, toifa, guruh nomlaridan paydo bo‘lgan, yer tuzilishi, obyekt va qurilish inshootlari, o‘simliklar dunyosi, aholining kasbi, turli xil voqealar-yig‘inlar va shu kabilar bilan bog‘liq toponimlar kabilarga ajratish mumkinligini ham qayd etgan. Tilshunos olim K.Nazarov va toponimist T.Enazarovlarning uslubiy qo‘llanmasi³⁴ da toponimlarni tasniflash borasida yangicha yondashishni kuzatish mumkin. Bunda guruhlarning ichki bo‘linishiga alohida e’tibor qaratilgan:

³² Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 1-сон. – Б. 17-20.

³³ Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. – Б. 12.

³⁴ Назаров К., Эназаров Т. Жой номларини йиғиш сўроқлиги. – Т.: Университет, 1995. – Б.19-24.

1. Joy nomlarining qo‘llanish xususiyatiga ko‘ra tasnifi: a) joy nomlarining takror qo‘llanishi; b) joy nomlarida toponimik aniqlagichlarning qo‘llanishi; v) qo‘llanish davriga ko‘ra farqlanadigan joy nomlari.

2. Joy nomlari hududga nisbatan katta-kichikligi nuqtai nazaridan tasnifi: a) makrotoponimlar; b) mikrotoponimlar.

3. Joy nomlarining tarkibiga ko‘ra tasnifi: a) apellyativ nomlar; b) formantli nomlar; v) indikatorli nomlar.

4. Joy nomlarining leksik tasnifi: a) umumturkiy; b) so‘g‘d; v) fors-tojik; g) arab; d) mo‘g‘ul; ye) rus va b.

5. Joy nomlarining leksik-semantik tasnifi: a) joy nomlarining guruhlari: oykonimlar; gidronimlar va b.; b) joy nomlarining kelib chiqishi va nomlanishiga ko‘ra guruhlari: etnotoponimlar; antrotoponimlar; geotoponimlar va b.

6. Joy nomlarining morfologik tasnifi: toponimlarga asos bo‘lgan vositalar: o‘zak va qo‘shimchaga xos xususiyatlar; joy nomlarining so‘z turkumlari jihatidan guruhlanishi; joy nomlarining yasalishiga ko‘ra guruhlari³⁵.

Tarixiy toponimlarni tasniflash borasidagi X.A.Bo‘riyevaning fikrlari ham e‘tiborga loyiq. Olima Toshkent shahri tarixiy toponimlari xususida so‘z yuritib, ularni tasniflashda davriylik jihatiga ham e‘tibor berilsa, toponimik manzara yanada aniqroq bo‘lishini ta‘kidlab, quyidagi tasnifni taklif etgan: A) joyning turiga ko‘ra; B) mazmuni yoki ma‘nosiga ko‘ra.

Joyning turiga ko‘ra toponimlar: gidronimlar, shahar qismlarining nomlari, ma‘muriy bo‘linmalar va b.

Toponimlarning mazmuni yoki ma‘nosiga ko‘ra: antropotoponimlar, geografik shart-sharoitlarni aks ettiruvchi toponimlar, ijtimoiy-xo‘jalik hayoti bilan bog‘liq toponimlar va b. O‘z navbatida, olim har ikkala turdagi guruhlar turli jihatlariga ko‘ra yana kichikroq guruhlarga bo‘linadi³⁶, deya qayd etgan.

³⁵ Назаров К., Эназаров Т. Жой номларини йиғиш сўроқлиги. – Т.: Университет, 1995. – Б.19-24.

³⁶ Бўриева Х.А. Тарихий топонимларнинг таснифланишига доир (Ташкент шаҳри мисолида) // “Ўзбек тилшунослиги XXI асрда” Номшунос олим профессор Тўра Нафасов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-назарий анжуман материаллари. – Қарши, 2008. – Б.35-37.

Taniqli toponimist olim N.Oxunov o'zining toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari masalasiga bag'ishlangan tadqiqotida oykonimlar misolida quyidagi tasnifni keltirgan: 1) kishi ismining o'zi bilangina atalgan oykonimlar; 2) kishi ismi va unga qo'shilib qo'llangan titul nomidan iborat oykonimlar; 3) gidronimlar; 4) agroonimlar. Shuningdek, mazkur tasnifda urug'-qabila, xalq, elat nomlari, o'simlik, hayvon nomlari; yer qatlamining tuzilishi va tuproqning tarkibi; suvning turli sifatleri kabi o'ndan ortiq yo'nalishga ko'ra nomlangan toponimlar ajratilishi ko'rsatilgan³⁷.

Olim toponimlarni paydo bo'lgan davri bilan bog'liq xronologik tasnifga ko'ra eski va yangi nomlarga ajratib, eski nomlarga urug'-qabilachilik davri, aholining sinfiy, ijtimoiy tabaqalanishi, diniy e'tiqod, tushuncha va tasavvurlarga aloqador, o'tmishdagi katta yer egalari – feodallar, xonlar, amirlar, beklar va shu kabi amaldorlar nomi bilan bog'liq, turli xil voqea-hodisalarni bildiruvchi, o'tmishdagi amal, mansabni ifodalovchi nomlar asosida shakllangan toponimlarni kiritishni taklif etgan. Yangi nomlar – neotoponimlar sirasiga esa nisbatan keyingi davrda paydo bo'lgan nomlarni kiritgan³⁸.

Toponimlarni tasniflash borasida K.Yusupovning qarashlari ham e'tiborga loyiq. Olim toponimlarni leksik-semantik jihatdan sakkiz ma'noviy guruhga ajratishni taklif etgan:

- 1) qabila nomini bildiruvchi toponimlar;
- 2) millat nomini bildiruvchi toponimlar;
- 3) kishilar ismiga qo'yilgan toponimlar;
- 4) kasb-hunarga nisbat berilgan toponimlar;
- 5) predmet belgisini ifodalovchi toponimlar;
- 6) o'simlik (daraxt)lar nomi bilan yuritiladigan toponimlar;
- 7) el-yurt, vatan nomi bilan bog'langan toponimlar;
- 8) geografik relyefni ifodalovchi toponimlar³⁹.

³⁷ Охунув Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Т.: Фан, 1989. – Б.18.

³⁸ Охунув Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Т.: Фан, 1989. – Б.50.

³⁹ Юсупов К. Айрим топонимлар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1966. – № 1. – Б. 17.

Atoqli tilshunos S.Karimov hamda Samarqand viloyati Urgut tumani mikrotoponimiyasini tadqiq etgan S.Bo'rievlarning monografiyasi⁴⁰ da nisbatan batafsil tasnifni kuzatish mumkin. Bunda mualliflar mazmun va shakl dialektikasi, toponimlarning barcha lingvistik va ekstralingvistik qamrovi nuqtai nazaridan K.Nazarov va T.Enazarovlarning tasnifi birmuncha ma'qul ekanligi, Z.Do'simov tasnifida asosiy diqqat-e'tibor toponimlarning leksik-semantik va grammatik tuzilishiga hamda xronologiyasiga qaratilgani tufayli uni ham shu tasnif doirasida qarash mumkinligini uqtirib, toponimlarni 5 yo'nalishda tahlil etishni taklif etishgan:

1. Toponimlarning hududiy tasnifi.
2. Toponimlarning xronologik tasnifi.
3. Toponimlarning qaysi tilga mansublik jihatdan tasnifi.
4. Toponimlarning grammatik tarkibiga ko'ra tasnifi.
5. Toponimlarning leksik-semantik tasnifi⁴¹.

Toponimlar tasnifidagi birinchi yo'nalishga makrotoponimiya va mikrotoponimiya kiritilgan. Bunda makro va mikrotoponimiya tushunchalari chegaralari aniq belgilab berilgan. Mavjud ilmiy manbalar tahlili natijasida mualliflar mikrotoponimlar deganda, umumiy ma'noda kichik obyektlar (daryolar, ariqlar, ko'llar, buloqlar, kanallar, quduqlar, hovuzlar, jarlar, to'g'onlar, mahallalar, guzarlar, dam olish joylari, choyxonalar, bozorlar, maktablar, mehmonxonalar, ekinzorlar, muqaddas joylar, tarixiy yodgorliklar, yo'llar, tepaliklar, tashkilot va korxonalarining nomlari) anglashilishini, joylardagi yirik geografik obyektlarning, ya'ni tumanlar va viloyatlar, shaharlar, tog' va sahrolar, cho'llar va vodiylarning nomlari makrotoponimlar hisoblanishini uqtirishgan.

Ikkinchi yo'nalishda diaxron va sinxron toponimlar, uchinchi yo'nalishda o'zbekcha, substrat va aralash toponimlar, to'rtinchi yo'nalishda sodda, qo'shma, murakkab; tub va yasama toponimlar, beshinchi yo'nalishda esa agroonim,

⁴⁰ Каримов С.А., Бүриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Т.: Фан, 2006. –129 б.

⁴¹ Каримов С.А., Бүриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Т.: Фан, 2006. –В. 86.

antropooykonim, antropotoponim, gelonim, gidronim kabi o‘ttizga yaqin atoqli ot turlari qamrab olinishi bayon etilgan⁴².

O‘rni kelganda qayd etish kerakki, rus tilshunosligida toponimlarning tasniflanishi masalasini chuqur o‘rgangan A.V.Superanskaya onomastik tasniflar zahirida aholi punktlarining nomlarigina chuqur tahlil etilib, asosiy e‘tibor topoasoslar va ularning tarixiy ildizlarini o‘rganishga qaratilganligini qayd etgan. Olima nomlarning lingvistik va ekstralingvistik tabiatli bo‘lishini nazarda tutib, quyidagi tasnifni taklif etgan:

1. Nomlarning nomlanayotgan obyekt bilan aloqadorligiga ko‘ra tasnifi.
2. Tabiiy paydo bo‘lgan yoki sun‘iy yaratilgan nomlar tasnifi. Bu tasnif nomlarning rasmiy va norasmiy qo‘llanishi bilan uzviy bog‘liq.
3. “Mikro” va “makro” yo‘nalishdagi tasnif.
4. Nomlarning struktur tasnifi.
5. Xronologik tasnif.
6. Nomlanish motivlari va etimologiya nuqtai nazaridan tasnif.
7. Ifodalangan tushunchalarning qamrovi nuqtai nazaridan tasnif.
8. Til va nutq munosabati bilan aloqador tasnif.
9. Uslubiy va estetik tasnif⁴³.

Yuqorida bayon etilganlardan ma‘lum bo‘ladiki, tadqiqotchilar toponimlarni tasniflashda turli-tuman jihatlarga e‘tibor qaratganlar. Bunda, albatta, milliy til xususiyatlari, nomlarning turlari, ularning paydo bo‘lish motivatsiyalari, hajmi, ko‘lami, paydo bo‘lishning ijtimoiy-maishiy sabablari, tarix, geografiya fanlari va boshqa omillar hal qiluvchi rol o‘ynagan. Biz Angor tumani mikrotoponimlarini tadqiq etishda o‘zining nisbatan mukammalligi bilan ajralib turadigan Z.Do‘simov, S.Karimov va S.Bo‘riyev, K.Nazarov va T.Enazarov kabi olimlarning tasniflariga tayanamiz. Bu sohada izlanish olib borgan yana bir tadqiqotchi N.Adizova toponimlar tasnifini quyidagicha amalga oshirishni taklif etadi⁴⁴:

⁴² Ko‘rsatilgan asar. – B. 87.

⁴³ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С. 159.

⁴⁴ Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Бухоро, 2021. – Б.6.

1.Hududiy: makrotoponimiya va mikrotoponimiya. Bunda tadqiq etilayotgan hududning ko‘lami, hajmi nazarda tutiladi.

2.Xronologik: toponimlarning vaqt, davr bilan bog‘liq xususiyatlari o‘rganiladi.

3. Ma‘noviy: leksik-semantik tasnifda toponimlarning ma‘noviy va etimologik jihatlari qamrab olinadi.

4.Morfem: toponimlarning tarkibi, undagi asosning shakli va qo‘shimchalarning mavjudligi hamda vazifasi tadqiq etiladi.

5. Grammatik tarkib: toponimlar tarkibida qanday so‘z turkumlariga oid birliklarning mavjudligi tahlil qilinadi.

6. Yasalish: toponimlarning yasalishi bilan bog‘liq holatlar: tub yoki yasama ekanligi, yasalishning usullari o‘rganiladi.

Yuqorida berilgan tasniflarni o‘rganib, ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatdiki, toponimlarni tadqiq etishda keng manbalarga, materiallarga asoslanish kerak bo‘ladi.

I bob bo‘yicha xulosa

1. Nomshunoslik (ismshunoslik, toponimika) har bir xalq tarixi, etnografiyasi ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan bog‘lanib ketadi. Kishilarga va joylarga nom berish turli davrlarda xalqning ijtimoiy hayot sharoitlari, jamiyatda tutgan o‘rni, uning madaniy saviyasi, dunyoqarashi, urf-odati, rasm-rusumlari bilan bog‘liqdir. Nomlar tabiat va jamiyatdagi muayyan o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda, ma‘lum qonuniyatlar asosida vujudga keladi va xalq tarixi bilan uzviy bog‘liqdir.

2. Keyingi davrlarda antroponimlarning antropotsentrik tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham yaratildiki, bu nomshunoslikning lingvokognitiv jihatdan o‘rganishga qiziqishning oshganligini ko‘rsatadi.

3. Toponim – geografik obyektning, joyning nomi; toponimiya – bu nomlarning yig‘indisi, toponimika – ana shu nomlarni nazariy va amaliy jihatdan

o'rganuvchi sohadir. Toponimikani ba'zan *toponimistika/ toponamastika* deb ham nomlashadi.

4. O'zbekistonda onomastik birliklar orasida eng ko'p o'rganilgani joy nomlari – toponimlar bo'lib, kelgusida bunday tadqiqotlar yanada kengaytirilishi va chuqurlashtiridishi lozim. Shu asosda O'zbekiston toponimlarining xaritasi, mukam mal ko'p tomlik izoxli lug'ati maydonga kelishiga mustahkam zamin hozirlanadi.

5. Tadqiqotchilar toponimlarni tasniflashda turli-tuman jihatlarga e'tibor qaratganlar. Bunda, albatta, milliy til xususiyatlari, nomlarning turlari, ularning paydo bo'lish motivatsiyalari, hajmi, ko'lami, paydo bo'lishning ijtimoiy-maishiy sabablari, tarix, geografiya fanlari va boshqa omillar hal qiluvchi rol o'ynagan.

II BOB. SURXONDARYO TOPONIMLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

2.1. Surxondaryo toponimikasining o'rganilish tarixi

Eramizdan avval minginchi yillarda Eron etnik guruhlarini g'olib sifatida O'rta Osiyo hududida paydo bo'la boshlaganlar. Eronliklar so'g'd va boshqa mahalliy xalqlar ustidan hukmronlik qila boshlaganlar. Mahalliy xalqlar barcha imkoniyat va huquqlaridan maxrum etilgan. Adabiy va davlat tili fors tili bo'lgan. Mahalliy xalqlarni eronlashtirish shu darajaga yetganki, hatto qator mahalliy geografik nomlar qayta nomlangan. Masalan, qadimiy Sirdaryo nomini Yaksart deb qayta nomlagan. Bu tarixiy jarayon davomida Kaspiy dengizidan tortib, Oltoy o'lkalarigacha bo'lgan katta hududda eroniy tillarning *so'g'd, fors-tojik, buluj, afg'on, kojar, jat* dialekt va shevalariga oid elatlar, guruhlar va qavmlar bilan bir qatorda turkiy sheva, lahjalarda so'zlashuvchi etnik guruhlar, urug'-aymoq kabi elatlar ham hayot kechirganlar.

VI asrning 60-yillarida O'rta Osiyo hududida turkiy tillar guruhi keng tarqala boshlagan. O'rta Osiyoga turklar kelgunga qadar va keyin ham ikki til tizimi eroniy va turkiy taraqqiy qilib, biri ikinchisiga ta'sir qilib turgan¹. K.E.Bertelsning yozishicha, arablar O'rta Osiyoga bostirib kelgunga qadar so'g'd tili Buxoro va Samarqand xalqlarining asosiy tili bo'lgan.

Shunga qaramay, O'rta Osiyoning qadimiy aholisi, asosan, "eroniy" va turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalardan iborat bo'lgan.

Prof. A.Y.Yakubovskiyning ko'rsatishicha Movarounnahrda Amudaryo va Sirdaryoning oralig'idagi keng hudud eramizning VI asridan va undan so'ng Toshkent va Farg'ona viloyatlarida qadimgi turkiy madaniyatning yaratilishad juda muhim rol o'ynadilar. Keyinroq esa o'sha qadimiy turkiy qavm va elatlar bo'linib-bo'linib hozirgi *o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq* kabi millatlarning tarkibiga qo'shilib ketganlar. Lekin tarixiy ma'lumotlarning ko'rsatishicha O'rta Osiyoda xususan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida turkiy xalqlarga nisbatan "eroniy" so'zlashuvchi mahalliy aholi ko'proq bo'lgan. Eroniy

tilda soʻzlashuvchi aholi koʻproq shahar va shahar atroflarida, turkiy xalqlar esa koʻproq choʻlda yashaganlar. Eroniy va turkiy tilda soʻzlashuvchi mahalliy aholi oʻrtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar, hattoki quda-andachilik ishlarining borgan sari yaxshi yoʻlga qoʻyila borishi bu yerlarda ikki tillilikni yuzaga keltirib chiqardi. Ayniqsa, VI-VIII asrdan soʻng turkiy qabilalarning ommaviy koʻchib kela boshlashlari, arablar isteʼlosiga qarshi eroniy va turkiy qabilalarning birgalikda kurash olib borishi, turk xoqonligining tashkil topishi, moʻgʻullarning kelishi va nihoyat koʻchmanchi oʻzbeklarning yoppasiga Oʻrta Osiyoga bostirib kirishlari hamda mahalliy aholi bilan aralashib ketishi, bu holning esa qadimgi turkiy qabilalar foydasiga, yaʼni ularni son va nufuz jihatdan ustun boʻla boshlashiga olib kelganligi-ana shu omillarning hammasi birga qoʻshilib Oʻrta Osiyo sharoitida yuz bera boshlagan ikki tillilikning orta borishiga bunda ham eroniy xalqlarning turkcha soʻzlay boshlaganlari va ularning ikki tili boʻlib qolayotganliklari nisbatan koʻproq miqdorni tashkil etadi, asta-sekin esa turkiy soʻzlashuvga moyillikning kuchayishiga sabab boʻldi va jarayonni tezlashtirdi.

Prof. A.K.Borovkovning qayd etganidek, eroniy tojik va oʻzbek tillari orasidagi munosabat, olish-berish, ikki tomonlama xarakterga ega boʻlib, oʻzbek tili tojik tiliga, tojik tili esa oʻzbek tiliga taʼsir etdi. Bunday oʻzaro taʼsir hozirgi Oʻzbekiston va Tojikistonning ayrim hududlarida hozir ham davom etmoqda. Xuddi ana shu jihatdan ham Surxondaryo viloyatining lingvistik shevalari va tarixiy toponimik materiallari juda xarakterlidir ⁴⁵.

Tarixiy-arxeologik manbalar va Surxondaryo viloyati hududidan yozib olingan joy nomlarining ilmiy tahlili shuni koʻrsatadiki, fors-tojik tili unsurlaridan tarkib topgan toponimlar viloyat toponimik tizimining birinchi qatlamini tashkil etadi.

Maʼlumki, u yoki bu til oʻzining tarixiy taraqqiyot jarayonida oʻz ichki imkoniyatlari asosida rivojlanishdan tashqari boshqa tillardan soʻz-terminlar olish hisobiga ham boyib boradi. Xuddi shu ikkinchi tarixiy taraqqiyot yoʻnalishi

⁴⁵ Ўзбек ва тожик тилларининг муносабатлари ҳамда ўзбек тилидаги тожик-форс сўзлари ҳақида қаранг: С.Усмонов. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форс сўзлари ва арабча сўзлар, “Навоийга арғувон”, Тошкент, “Фан”, 1968, 108-121 бетлар

toponimiyada ham sodir bo'lib turadigan lingvistik qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Ammo, har bir hududdagi toponimik nomlar yig'indisi shu hududda joylashgan mahalliy halq tilining lug'at tarkibiga, xususan uning tarixiy leksik qatlamiga mansubdir. Bu fikrni ana shu fakt ham isbotlaydiki, mahlliy aholisining turkiy o'zbekmi yoki eroniy urug'-qabilalardan iboratligi uning toponimiyasida ham aks etadi. Eroniy xalqlar yashagan hududda, ko'proq eron tillarga xos toponimiya, turkiy xalqlar yashagan hududida esa ko'proq turkiy toponimiya asosiy qismni tashkil etadi. Hattoki, qadimda eroniy xalqlar yashagan hududda so'ngroq turkiy o'zbek urug'lari kelib yashay boshlagan bo'lsa ham, baribir, asta-sekin eroniy toponimlar unutila borib, turkiy yoki o'zbekcha joy nomlar ko'paya boradi. Lekin, baribir, eroniy unsurlar ham toponim-substrat tarzida qisman saqlanadi. Bu yo'nalish toponimikaning qonuniyatlaridan biridir. Masalan, birgina Boysun tumanidagi tojik xalqi yashaydigan Sayrob qishlog'idan yozib olingan 200 ga yaqin mikrotoponimlardan 98 foizi tojik tili va shu til unsurlari asosida yaratilgan. Yoki bu tumandagi Darband qishlog'idan yozib olingan 150 dan ortiq mikrotoponimlarning qariyb 96 foizi tojik tili unsurlari asosida paydo bo'lgan. Tarixan o'zbek urug'lari yashab kelgan Sherobod tumanidagi Oqtosh qishlog'idan yozib olingan 67 mikrotoponimlarning 26 tasi sof o'zbek tili materiali asosida, qolgan 41 tasi aralash (gibrid) yoki boshqa til so'zlaridan paydo bo'lgan. Shu tumandagi Xatak qishlog'idan yozib olingan 78 joy nomidan 30 tasi sof o'zbek tili so'zlaridan, 48 tasi aralash (gibrid) yoki o'zga til materiallari negizida yaratilgan va hokazolar.

Surxondaryo viloyatining hududida fors-tojik tiliga xos so'z shakllarining toponimlarda ko'plab uchrashi va tarqalishi turli ijtimoiy, siyosiy omillar bilan bog'liqdir. Tojik va o'zbek halqlari juda qadimdan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va adabiy aloqada bo'lib kelgan. Bugina emas, hatto o'zbeklar bilan tojiklar yaqin qo'shni va ko'pchilik joylarda aralash yashaganlar. Bu yaqin munosabat o'z navbatida ularning tillarida o'z izlarini qoldirgan. Fors-tojik tilidan o'zbek tili lug'at tarkibiga qator so'zlar o'tgan bo'lib, bular o'zbek tili lug'at tarkibiga singib ketgan va o'z so'zi, til boyligi bo'lib qolgan. Bu xil "o'z" so'zlarga hozirgi o'zbek

adabiy tili leksikasidagi *anbar, ozod, bog', baland, bo'ston, zamon, koriz, nishon, tarozi, paxta, xo'ja, bozor, band, gadoy, go'r, gumbaz, zar, eshon, kal, qalandar, kampir, karvon, ketmon, ko'hna, xurjun, xudo, lola, lo'li, non, payg'ambar, podsho, poda, chosh, dahna, dasht, oxir, gugurt, dehqon, zindon, darcha, nishob, havor, xachcha, bekat, do'st, lalmi, lashkar, mardikor, miroxo'r, qarz, kaft, daraxtzor, peshtoq, ozoda, hammom, jang, daryo, korxonona, shudgor, ustoz* kabi so'zlarni namuna qilib ko'rsatish mumkin. Yuqorida ham qayd etilganidek, tojik va o'zbek xalqlarining til jihatdan bo'lgan aloqalari va uning izlari Surxondaryo viloyat toponimiyasida ham o'z izini qoldirgan. Viloyat toponimiyasi tarkibidagi turli so'z va shakllardan tarkib topgan toponimlarni quyidagi tiplarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Fors-tojik tili unsurlaridan tarkib topgan sodda toponimlar.
2. Fors-tojik tili unsurlaridan tarkib topgan qo'shma toponimlar.
3. Umumturkiy til unsurlaridan tarkib topgan toponimlar.
4. Mo'g'ul tili unsurlaridan tarkib topgan toponimlar.

2.2. Angor toponimining etimologik tahlili

Angor tumani – Surxondaryo viloyatidagi tuman. 1952-yil. 16-aprelda tashkil etilgan. 1962-yil 24 dekabrda Termiz tumaniga birlashtirilgan. 1979-yil 4-dekabrda qayta tuzildi. Angor tumani viloyat janubida joylashgan. Termiz, Muzrabot, Sherobod, Qiziriq va Jarqo'rg'on tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0,39 ming km².

Angorda miloddan avvalgi VI-IV asrlarda aholi manzillari bo'lgan. Kushon podsholigi davrida (I-III asrlar) dehqonchilik vohasi tarkib topgan. Zartepa qal'asi Angorning markazi bo'lgan. VI-VII asrlarda qal'alar, qo'rg'onlar vujudga kelgan. O'tmishda Angor Termizga boradigan savdo karvoni qo'nib o'tadigan qishloq hisoblangan.

Angor /angar/ toponimi O'rta va Markaziy Osiyoda va Janubiy Sibirda geografik joy nomi sifatida keng tarqalgan. Janubiy Sibirda Angara daryosi, Qrimda Selgir daryosining Angora irmog'i, Mo'g'ulistonda Angara va Aranxarxa

daryolari, Tojikistonda Dashti angari qishlog‘i va Samarqand viloyatida Angor tumanligi bo‘lgan.

Angar /angara/ qozoq, qirg‘iz, janubiy Sibir turkiy xalqlari tilida keng vodi; turk tilida-kenglik, bo‘shliq, yalanglik, dala kabi ma‘nolarga ega, tojik tilida angar hosili yig‘ib olingandan keyin mol boqiladigan dala, afg‘on tilida *angara* – hosili yig‘ib olingan maydon, dala, *angaray* - g‘alla o‘rib olingandan keyin yerda qolgan boshqolari teruvchi ma‘nolarini bildiradi.

O‘zbek tilida va uning ko‘pchilik shevalarida ham angar //angara so‘zlari hosili yig‘ib olingan maydon, mol boqiladigan dala, bug‘doy arpa yig‘ib olingandan keyin boshqolari to‘kilib-sochilib qolgan dala ma‘nosida tushuniladi. Hozirgi Angor qishloq hududi XIX asrning oxirlariga qadar faqat yontoqzorlardan iborat cho‘l bo‘lgan. Sherobod atrofidagi qishloq dehqonlari Sherobod daryosidan suv haydab kelib, g‘alla ekib, dehqonchilik qilib ketishganlar G‘alla yig‘ib olingach, dehqonlar o‘z mollarini hosili yig‘ib olingan angarada boqishganlar.

Angor toponimi o‘zbekchami /turkiymi/ yoki boshqa turkiy bo‘lmagan tillardan qabul qilingan so‘zmi, degan savol tug‘iladi. Yuqorida ko‘rgan edikki, *angara /angar/* so‘zi ayrim tovush o‘zgarishlar bilan turkiy xalqlar yashagan va yashayotgan keng xududda vodiy, kenglik, yalanglik, dala kabi ma‘no bildiruvchi toponimlar sifatida uchraydi. Ammo, qadimgi turkiy manbalarda, chunonchi, Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni”da, eski o‘zbek tilida angar so‘zi uchramadi. Mahmud Qoshg‘ariy “Devon”ida bug‘doy va boshqa donlar yig‘ib olingach, yerda to‘kilib, sochilib qolganlari ma‘nosida angiz so‘zi uchraydi⁴⁶. Xuddi shu so‘z boshqa manbalarda ham bor. Masalan, angiz eski o‘zbek tilida hosili yig‘ib olingach, maydonda qolgan xascho‘p, V.V.Radlov “Lug‘at”ida hosili yig‘ib olingan dala, turk va qoraqalpoq tillarida angiz-ekishga yaroqli yer, qirg‘iz tilida angiz-ekin maydoni, qipchoq shevasida esa angiz hosil olingandan keyin qolgan yer, qo‘riq yer kabilar. Ko‘rinadiki, turkiy tizimdagi tillar uchun angar so‘zi xarakterli emas. Eroniy tillarda esa buning aksi. Bulardan tashqari, afg‘on tilida

⁴⁶ М. Қошғарий. “Девон”, т.1, Тошкент, 1960, 120-бет.

angarning yana bir ma'nosi uy, hovli, turur-joy, imorat, bino, saroy, o'rab olingan hovli qo'ra kabi tushunchalarni ifodalaydi. Biz o'rganayotgan Angor qishlog'i qadimda Xitoy, Hindiston savdo karvon yo'lida joylashgan bo'lib, bu yerda yo'lovchilar tunab o'tadigan saroy ham bo'lgan. Karvonlarni kutib oluvchi, xizmat qiluvchi va kuzatuvchilar ko'pincha afg'onlar bo'lgan. Bu saroyning XX asr boshlarigacha ham bo'lganligi qayd etilgan.

Angor so'zining ma'nosi haqida turli fikrlar bor. Mahalliy aholining izohicha, angor – hosili yig'ishtirib olingan g'alla maydoni. Bunda Angorni qadimda Termiz va uning atrofidagi o'troq aholining lalmikor dehqonchilik qiladigan g'allazori bo'lganligi nazarda tutiladi. Eroniy tillarda, xususan, afg'on tilida: angara – “ang'iz”, “o'roq vaqti”, “o'rim-yig'im, ekin o'rib olingan yer”; angar – “to'siq, hovli” tushunchasini beradi⁴⁷. T.Nafasovning ta'kidlashicha, angar va angara so'zlari ma'noda keskin farqlanadi. Bu so'zlar ma'nolari asosida Angor toponimini izohlash asossizdir. U dastlab suv obyekti – yaydoq yerga Surxon, Sherobod daryolaridan chiqarilgan kanalning nomi bo'lgan. Bu suv yo'li arabcha anhor deb atalgan. O'zbeklarda – Angar, tojiklarda – Angor. Samarqanddan Qarshi cho'liga ilk o'rta asrda keltirilgan suv ham Anhor deb yuritilgan. XX asrning 50-yillarida bu kanal qayta tiklandi, eski o'zandan suv yurgani uchun xalq *Eski Anhor* deb atadi, qoidaga ko'ra *Yangi Anhor* bo'lishi kerak edi, talaffuzda *Eski Angor*, *Eski Angar*, *Angor*, *Eski Anhor*, *Angarariq* asosida anhor so'zi turadi. Angor so'zi imlosida sun'iylik bor. Anhor bo'lishi kerak, deydi⁴⁸. Angar/angor so'zi ishtirok etgan toponimlar Osiyoning turli hududlarida uchraydi. Masalan: Angara – Sibirdagi daryo, Yeniseyning o'ng irmog'i, Anqara – Turkiya poytaxti va hokazolar. Mo'g'ul tilida angar – “yoriq, tirqish, dara, tog' oralig'i”, yoqutcha “teshik, darvoza, dara” ma'nolarini anglatadi⁴⁹. Hozirgi Angor tumanida tabiiy jarlik faqat Qorasuv bo'yidagina bor. Ammo uni mo'g'ul tilidagi angar so'ziga aloqasi borligini aniqlash uchun maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish lozim.

⁴⁷ Составил М.Г.Асланов. Афганско-русский словарь. Москва, 1966, стр. 81-82.

⁴⁸ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1988, 12-13 бетлар.

⁴⁹ Санжеев Г.Д. Маньчжурско-монгольские языковые параллели. ИАН, серия VII, отдел гуманитарных наук, 1930, №6, стр. 618.

Y.Xo‘jamberdievning fikricha, angor so‘zi eroniy tillardan o‘tgan va u “aholi markazi” degan tushunchani beradi⁵⁰. Hozirgi Turkiyaning poytaxti Anqaraga mil.av. VII asrda asos solingan. Yunoncha *Aykopa*, lotincha *apsoga*, turkcha lenger – “langar, qo‘nalg‘a, bekat”. Bu so‘zning asosida ehtimol frigiycha *anker* – (ruscha yakor) “*langar*” so‘zi yotgan bo‘lishi mumkin. Anker hind-yevropacha so‘z bo‘lib, “*qo‘nalg‘a*”, “*yo‘l ustida to‘xtash joyi*” degan ma‘noni beradi. Doktor Yavorskiyning yozishicha, Angor uncha katta bo‘lmagan aholi punktidir. Bu yerdan Amudaryogacha, ya‘ni Pattakesar kechuviga qadar 25 verstdir⁵¹. Tarixchi olim S.Tursunovning fikricha qadimdan Angor hududi orqali Buyuk Ipak yo‘lining bir tarmog‘i o‘tgan. Bu yerdagi Tozlar tepa, Bolaliktapa, Zartepa, Qizqo‘rg‘on, Kuyovqo‘rg‘on, Xayrobotepa singari qo‘rg‘onlar yo‘ldan o‘tayotgan karvonlar uchun qo‘nalg‘a vazifasini o‘tar edi. Ana shunday to‘xtash joyi Angor deb atalgan. Angor – “karvonlar to‘xtaydigan joy”, “mustahkam qo‘rg‘oni bor qo‘nalg‘a”, “karvonsaroy” ma‘nosini anglatadi⁵². Toponimist-tadqiqotchi S.Qorayev Angor toponimini XIV asrda amalda bo‘lgan maydon o‘lchov birligining hozirgi toponimiyadagi qoldig‘i bo‘lsa kerak, deya fikrlaydi. Toponimist G.K.Konkashpaev bo‘lsa, angor terminining faqat daryo, dara, voha kabi joy nomlarida uchrashini va bularning hammasi ham bir o‘zakdan tarqalgan bo‘lishi mumkinligini aytadi. Angor toponimi arabcha *anhor /birligi nahr/-daryo, kanal* termini bilan ham ohangdoshdir. XX asrning boshlarida Zang kanalidan hozirgi Angor qishlog‘iga kanal qazib kelingan. Rus tilining ta‘sirida anhor-angor bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin. Chunki, Qashqadaryo viloyatidagi eski Anhor kanali va Qarshi shahridagi Eski Anhor bekatini mahalliy odamlar og‘zaki talaffuzda, ba‘zan kundalik matbuotda ham Eski Angor nomi bilan ataydilar. Biroq bizning tekshirishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, Angor toponimining arabcha *anhor /nahr/* so‘ziga aloqasi yo‘q. Fikrimizcha, *angar, angara, angor* so‘zi aslida fors-tojikcha

⁵⁰ Хўжамбердиев Ё. Ангор нима??? «Фан ва турмуш» журнали, 1985, №6, 7-бет.

⁵¹ Путешествие русского посольства по Авганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. Том I, СПб, 1882, стр. 56.

⁵² Tursunov S.

bo‘lib, hosili yig‘ib olingan dala, yaylov, o‘tloq kabi ma’nomlarni bildiradi va Angor toponimi ham ana shu so‘z asosida paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Tarixchi olimlarning, xususan S.Tursunovning tadqiqotlari quyidagi xulosani beradi. Angor – shu nomdagi tuman va uning markazi. Mahalliy aholi hosili yig‘ishtirib olingan g‘alla maydoni ma’nosidagi angor so‘zi bilan bog‘lab, qadimda Termiz va uning atrofidagi o‘troq aholining lalmikor dehqonchilik qiladigan g‘allazori, yaylovi bo‘lgan joy deb izohlaydi. Angorni eroniy tillardan o‘tgan va aholi markazi deb izohlash ham bor. Afg‘on (pushti) tilida: angora-hosili yig‘ishtirib olingan dala, angor-to‘siq, hovli. Har ikkala ma’noda keskin farqlanadi. Angor, angor so‘zlarining ma’nomlari asosida Angor toponimini izohlash asossizdir. U dastlab suv obyekti-yaydoq yerga Surxon, Sherobod daryolaridan chiqarilgan kanalning nomi bo‘lgan. Bu suv yo‘li Anhor (ar.) deb atalgan. O‘zbeklarda – Angar, forslarda – Angor. Samarqanddan Qarshi cho‘liga ilk o‘rta asrda keltirilgan suv ham Anhor deb yuritilgan. XX asrning 50-yillarida bu kanal qayta tiklandi, eski o‘zandan suv yurgani uchun xalq Eski Anhor deb atadi, qoidaga ko‘ra Yangi Anhor bo‘lishi kerak edi, talaffuzda *Eski Angor, Eski Angar, Angor, Eski Anhor, Angarariq* asosida *anhor* so‘zi turadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, Angor tumani to‘g‘risida juda ko‘plab tahminlar mavjud. Biz ham bu borada o‘z munosabatimizni bildirib o‘tdik. O‘ylaymizki, bu boradagi ilmiy izlanishlar hali davom etadi.

2.3. Angor tumani toponim va mikrotoponimlarining leksik xususiyatlari

Geografik nomlar tarixiy kategoriya bo‘lib, ularning paydo bo‘lishi va o‘zgarishi jamiyatning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liqdir⁵³. Har bir geografik nom leksikaning elementi, u aktiv yoki passiv darajada lug‘at tarkibiga kiradi. Geografik nomlarni sinchiklab to‘plash, o‘rganish va tadqiq qilish geograflar,

⁵³ Мурзаев Э.Н. Основные направлений топонимических исследований. «Принципы топонимики». М., 1964, стр. 23.

tarixchilar, arxeologlar va etnograflar zimmasiga, avvalo, tilshunoslar zimmasiga yuklatiladi⁵⁴.

Geografik atamalar kishilik jamiyatining dastlabki paytlaridan boshlab joy, o‘rin va obyekt nomi sifatida qo‘llana boshlagan. Ibtidoiy jamoa davrida ovchilik bilan hayot kechirgan kishilar jamoasi bugun ov qilingan joyini kechagidan farqlashda, ajratishda obyektning belgisiga qarab nomlaganlar va shu belgi obyektning doimiy nomi bo‘lib qolgan. Demak, atama obyekt belgilarini farqlash uchun xizmat qilgan. Bunday hollarda *ko‘pincha g‘or, tepa, qoya, tog‘, jar, jilg‘a, dovon, cho‘qqi, qir, bel, sirt, kam, kamar, cho‘l, sahro, dasht, dara, adir, o‘tloq, yaylov, dala, maydon, qo‘tal, bet, buloq, dahna, zov, o‘r, qat, daryo, ko‘l, hovuz, qo‘ton, chashma, guzar, kechik, soy, arna* kabi geografik atamalar obyektning belgi-xususiyatlariga qarab o‘zlariga aniqlovchi qo‘shib birikmali va qo‘shma toponimlarni tashkil etgan. Bu tipdagi geografik atamalar ko‘pincha mikrotoponimlar guruhiga kiradi.

Ko‘pchilik xalq ommasiga tanilmagan, siyosiy, iqtisodiy va tabiiy xaritalarda ko‘rsatilmagan, faqat ma‘lum obyekt hududidagi mahalliy tillarda geografik nom sifatida qo‘llanadigan va obyektidagi hamma kishilar uchun atama komponentlaridagi so‘zlarning leksik ma‘nosi tushunarli bo‘lgan nomlar mikrotoponimlar hisoblanadi. Mikrotoponimlar tilda uzoq yashamaydi, u shakliy formasini tez o‘zgartiradi, ba‘zan umuman unutiladi. Masalan, Surxondaryo viloyatining barcha hududlarida sobiq sovet davrida mavjud bo‘lgan mikrotoponimlar, mustaqillik davriga kelib, yangi yerlar o‘zlashtirilishi va xo‘jaliklarning boshqa obyektlarga almashinishi natijasida ba‘zi mikrotoponimlardan boshqasi unutilgan, yangi nomlar bilan atala boshlangan. Mikrotoponimlar ham makrotoponimlar singari o‘tmish halqlar tili va tarixidan guvohlik beruvchi qimmatbaho manba hisoblanadi. Shuning uchun ham joy nomlarini o‘z vaqtida yozib olish va o‘rganish muhim vazifalardan biridir.

⁵⁴ Е.М. Поспелов. Географические источники топонимического исследования. «Питания ономастика». Киев, 1965, стр. 61.

Mikrotoponimlar atoqli otlarga nisbatan turdosh otlarga yaqin turadi, chunki turdosh otdan atoqli otga to'liq o'tmagan, ya'ni obyekt nomini bildirishga o'tish arafasida turadi⁵⁵.

Mikrotoponimlarning leksik-semantik, etimologik belgisini tezda tushunish mumkin. U biror obyektning belgisini bildirib sifatga yaqin turadi. Vaqt o'tishi bilan takomillashib, ixchamlashib, leksik ma'nosidan uzoqlasha boradi va otlashadi. Mikrotoponimlar bir til fakti, bir xalq ijodining mahsuli hisoblanadi⁵⁶. Shuning uchun ham mikrotoponimlar ma'lum davr kishilarining mashg'ulotini, obyektning tabiiy boyligini jonivorlar dunyosini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

Mikrotoponimlar haqidagi nazariy fikrlarga asoslanib, uning o'ziga xos xarakterli belgi-xususiyatlarini quyidagi guruhlarga bo'lib ko'rsatish mumkin:

1. Mikrotoponimlarni makrotoponimlardan ajaratib, ular o'rtasiga chegara qo'yib bo'lmaydi. Toponimikaning hamma sohalariga oid eng kichik obyekt nomlari mikrotoponimlarning tekshirish obyekti hisoblanadi.

2. Mikrotoponimlar ma'lum ob'ekt hududidagi kishilargagina aniq bo'lib, shu kishilar tilida qo'llaniladi. U hali siyosiy, iqtisodiy va tabiiy xaritadan o'rin olmagan.

3. Mikrotoponimlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma so'z va gap shaklida bo'lib, fonetik, grammatik va intonatsion jihatdan to'la shakllanib yetmagan.

4. Mikrotoponimlar turli so'z turkumlaridan, ko'pincha, sifat bilan ifodalanadi. Shakllanish jihatidan turdosh otdan atoqli otga o'tish jarayonida bo'ladi.

5. Mikrotoponimlarning leksik-semantik, etimologik ma'nosini tezda to'g'ri, aniq belgilash mumkin. Chunki, o'rganilayotgan zamon tili materiali asosida paydo bo'lgan.

⁵⁵ В.А. Никонов. Научное значение микротопонимы. «Микротопонимия». Изд. МГУ, стр. 7.

⁵⁶ А.В. Суперанская. Микротопонимия и их отличий от собственно топонимики. «Микротопонимия». Изд. МГУ. 1967, стр. 37.

6. Mikrotoponimlarning yuzaga kelishida geografik atamalar, toponimlarning takrorlanishi, obyektning belgi-xususiyatlari va turli voqea-hodisalari asos bo'ladi.

7. Mikrotoponimlar ko'pincha shaxs yoki predmetga qarashlilikni bildiradi.

8. Mikrotoponimlar tez-tez almashinib, ba'zan butunlay unutiladi.

9. Mikrotoponimlar obyektlarni boshqa kishilar tomonidan qayta nomlash, yangidan o'zlashtirilishi tufayli ob'ektlar nomi vujudga keladi.

10. Mikrotoponimlar ham ma'lum bir zamon tarixini o'rganishda bebaho manbadir.

Vaqtning o'tishi, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti va til qatlamlarining rivojlanishi tufayli, geografik atamalar asta-sekin o'zining dastlabki leksik ma'nosidan uzoqlashib, shakliy va fonetik o'zgarishlarga uchraydi. Demak, bundan ming yillar avval urug', qabila va elatlar tomonidan atalgan nomlar tildan-tilga, eldan-elga o'tishi natijasida uning dastlabki leksik ma'nosi hozirgi paytda tilda unutilgan. Bu esa geografik nomlarni tatqiq qiluvchi har bir ilmiy hodimdan geografiya, tarix, tilshunoslik va toponimika fanini puxta bilishni, til tarixi nuqtai nazaridan tahlil qilishni va uning dastlabki leksik ma'nosini tiklashni talab etadi.

Angor tumani mikrotoponimlarini leksik-semantik tahlil qilishda, asosan, kishilik jamiyatining ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, madaniyati, atalish davri, o'sha davr tili bilan bog'liq ravishda tatqiq qilish kuzatilgan maqsadning to'g'ri va izchil bo'lishiga yaqindan yordam beradi. Chunki, har bir geografik atama kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotini, jamiyat bosqichining belgi-xususiyatini, kasbini, urug', qabila, elatlarning tarixiy almashinish jarayonini boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqasini o'zida aks ettiradi. Ma'lum obyektida yashagan urug', qabila va elatlarning ijtimoiy turmush va mehnat faoliyatidan xabar beradi.

Angor mikrotoponimlari obyekt tili materiallari asosida tarkib topgan turli davr leksikasining mahsulidir. Shunga ko'ra toponimlarni leksik-semantik, struktural guruhlariga bo'lib o'rganish, tasnif qilish toponimik qatlamlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

II bob bo'yicha xulosa

1. Ma'lumki, u yoki bu til o'zining tarixiy taraqqiyot jarayonida o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanishdan tashqari boshqa tillardan so'z-terminlar olish hisobiga ham boyib boradi. Xuddi shu ikkinchi tarixiy taraqqiyot yo'nalishi toponimiyada ham sodir bo'lib turadigan lingvistik qonuniyatlardan biri hisoblanadi.

2. "Angor" so'zining ma'nosi haqida turli fikrlar bor. Mahalliy aholining izohicha, angor – hosili yig'ishtirib olingan g'alla maydoni. Bunda Angorni qadimda Termiz va uning atrofidagi o'troq aholining lalmikor dehqonchilik qiladigan g'allazori bo'lganligi nazarda tutiladi. Eroniy tillarda, xususan, afg'on tilida: angara – "ang'iz", "o'roq vaqti", "o'rim-yig'im, ekin o'rib olingan yer"; angar – "to'siq, hovli" tushunchasini beradi.

3. Mikrotoponimlarning leksik-semantik, etimologik belgisini tezda tushunish mumkin. U biror obyektning belgisini bildirib sifatga yaqin turadi. Vaqt o'tishi bilan takomillashib, ixchamlashib, leksik ma'nosidan uzoqlasha boradi va otlashadi. Mikrotoponimlar bir til fakti, bir xalq ijodining mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham mikrotoponimlar ma'lum davr kishilarining mashg'ulotini, obyektning tabiiy boyligini jonivorlar dunyosini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

4. Angor mikrotoponimlari obyekt tili materiallari asosida tarkib topgan turli davr leksikasining mahsulidir. Shunga ko'ra toponimlarni leksik-semantik, struktural guruhlarga bo'lib o'rganish, tasnif qilish toponimik qatlamlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

III BOB. ANGOR TUMANI TOPONIM VA MIKROTOPONIMLARINING YASALISH XUSUSIYATLARI

3.1. Toponimlar shakllanishining rang-barangligi

Angor tumani toponimlarini necha bo‘g‘indan tashkil topganligi jihatidan quyidagicha tasniflash mumkin:

- a) **bir bo‘g‘inli:** *Zang, Sharq;*
- b) **ikki bo‘g‘inli:** *Ilg‘or, Bahor, Gulzor;*
- c) **uch bo‘g‘inli:** *Gilambop, Qorabog‘, Novshahar, Guliston* kabi.

Hudud toponimiyasida **to‘rt, besh va undan ortiq bo‘g‘inli** toponimlar ham anchani tashkil etadi: *Madaniyat, Yangiobod, Qo‘shtegirmon, Dehqonbirlashuv* kabi.

Angor tumani toponimlarining tarkibiy xususiyatlari.

Nom tarkibidagi morfologik qurilish uning leksik-semantik xususiyatlarini aniqroq, batafsilroq bayon etishga ko‘maklashadi. Shu jihatdan qaraganda, Angor tuman toponimiyasidagi geografik obyekt nomlari so‘z qurilishi jihatdan ham rang-barangligini kuzatish mumkin. Bunda faqat bir asosdan, asos va qo‘shimchadan, asos va asosdan tashkil topgan holatlari kuzatiladi:

1. **Bir asosli:** *Sharq, Zang* kabi.
2. **Asos+affiks shaklida:** *Gul+zor, Qora+bog‘, Gul+iston* va boshqalar.
3. **Asos+asos shaklida:** *Qora+bog‘, Yangi+turmush, Katta+qum, Qora+suv, Qo‘sh+tegirmon* kabilardir.

O‘zbek tilidagi asos+asos shaklidagi toponimlar tarkibidagi “obod” qismi topoformant hisoblanadi. Bu haqda tadqiqotchi O‘.Rajabov fikr yuritib, uning Xorazm shevalarida avat shaklida qo‘llanishini qayd etgan⁵⁷. Shuningdek, A.L.Xromov obod komponenti O‘rta Osiyoda eng sermahsul topoformantlardandir, uning tarqalish areali Eron, Afg‘oniston va Pokiston kabi mamlakatlarni ham o‘z ichiga olishini yozadi⁵⁸.

⁵⁷ Ражабов Ў. Хоразм топонимияси индикаторларининг лисоний таҳлили: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2007. – Б.47.

⁵⁸ Хромов А.Л. Таджикская микропонимия долин Врехнего Зеравшана и Ягноба // Ономастика Средней Азии. – М., 1978. – С.60.

R.Abramyan obod so‘zi o‘rta fors tiliga mansub bo‘lib, “aholi joylashgan”, “gullab-yashnagan” kabi ma’nolar bildirishini qayd etgan⁵⁹.

T.Nafasov esa bu haqda fikr yuritganda, keksalar obod bo‘lgan joy tarzida izohlashini, obot-ovot-ovat – urug‘ nomi, deya sharhlaydi⁶⁰.

4. **Asos+asos+affiks** shaklida: *Dehqon+birlash+uv*.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi toponimlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish bo‘lsa ham, toponimik nomning ma’nosini ochib berishda fonetik va grammatik tahlilga murojaat qilish o‘rinli deb hisoblaymiz.

Angor tumani toponimlarini to‘plash natijasida hududda aholi punktlari, bog‘lar, ko‘llar, ko‘priklar, ko‘chalar, mahallalar, masjidlar, tepalar, ekin yerlar, qabristonlar, quduqlar, hovuzlar mavjudligi aniqlandi. Ularning barchasi turli darajada tarixiy nom bo‘lib, ayrimlari yaqin o‘n yilliklarda, aksariyat qismi esa bir necha asr oldin paydo bo‘lgan.

E. Begmatovning o‘zbek onomastik ko‘lam tasnifidan kelib chiqib Angor tuman onomastikasida umumiy holda quyidagi ko‘lamlar aniqlanganligini qayd etamiz (1-jadval).

1-jadval

1-jadval. Angor tuman onomastikasida aniqlangan ko‘lamlar

T/r	Angor tumani onomastikasida aniqlangan ko‘lamlar tasnifi	Miqdori 124	Umumiy onomastic ko‘lamga nisbatan foizi
1.	Nekrotoponimlar	17	13.7
2.	Gidroinimlar	6	4.8
3.	Oykonim	13	10.5
4.	Toponimlar	75	60.5
5.	Oronimlar	13	10.5

Toponimlarning paydo bo‘lishi, yasalishi, nomlanish sabablari bir necha asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiq etilganligini ilmiy adabiyotlar orqali bilib olish mumkin. Xususan, Z.Do‘simov respublika toponimlarini tasnif qilishda, asosan, ikki yo‘nalish: leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko‘ra tasniflash yaqqol

⁵⁹ Абрамян Р. Пехлавийско-персидско – армяно-русско – английский словарь. – Ереван, 1965. – С.61.

⁶⁰ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). – Т.: Ўқитувчи, 1988. – Б.135.

koʻzga tashlanishini qayd etib, leksik-semantik tasnifda etnotoponim, antropotoponim, zootoponim, biotoponim, geomorfologik toponimlarni oʻrganishni tavsiya etadi⁶¹.

3.2. Angor tumani toponimlarining hosil boʻlish asoslari

Toponimlarning paydo boʻlishi maʼlum bir sabab va qonuniyatlar asosida roʻy beradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hududdagi geografik obyektlarning nomlari biror sabab, yoki biror asosning natijasidir. Toponimlarning shakllanish yoʻli, paydo boʻlish jarayoni muayyan lisoniy qonuniyatlarga amal qilingan holda hamda bevosita mahalliy aholi tili (shevasi)ning lisoniy imkoniyati va birliklari ishtirokida kechadi.

3.2.1. Antroponim asosli toponimlar.

Angor tumani boʻyicha toʻplangan materiallar shuni koʻrsatdiki, toponimlarning yuzaga kelishida shaxs nomi – antroponimlar ham muhim hisoblanadi. Geografik obyektlarni kishilar nomi bilan atash Oʻrta Osiyo xalqlari oʻrtasida qadimdan shakllanganligini koʻrsatadi. Antroponimlar asosida shakllangan toponimlarning asosiy qismi kanallar, bogʻlar, avliyolar, hovuzlar, masjidlar, haziralar, koʻpriklar, qabristonlar, dalalar nomlarining shakllanishiga asos boʻlgan. Bular sirasiga *Oxunboboyev*, *Ulugʻbek*, *Gʻoyib ota* kabi ismlar ishtirokida hosil boʻlgan toponimlar nomlarini kiritish mumkin.

Antroponim ishtirok etgan joy nomlari sirasida qabriston nomlari ham koʻpchilikni tashkil qiladi. Hududdagi qabriston nomlarida antroponimlar ishtirok etishini quyidagicha tasniflash mumkin (2-jadval):

2-jadval. Angor tumani toponimikasida nekrotoponimlar

Kishi ismidan iborat	(kishi ismi+ota soʻzi) qolipli	(xoʻja+kishi ismi) qolipli
<i>Bogʻdodvali</i>	<i>Gʻoib ota</i>	<i>Xoʻja Rushnoyi</i>
<i>Abdurahmon</i>	<i>Saidvoqqosota</i>	
	<i>Kesik ota</i>	
	<i>Koʻktosh ota</i>	

⁶¹ Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 1-сон. – Б. 17-20.

	<i>Oqtosh ota</i>	
	<i>Xo'jankon ota</i>	

Xo'ja Ro'shnoyi maqbarasi – Angor tumani hududidagi yodgorlik. Termizdan 26 km shimoli-g'arbda, Termiz-Angor (Angordan 4 km janubda) avtomobil yo'lining g'arbida joylashgan. Bir zalli, peshtoq-gumbazli maqbara kesik kvadrat shaklida bo'lib, eshigi sharqqa qaratib qurilgan. Inshoot tepasi ikki bosqichli barabanga o'rnatilgan gumbaz bilan tugallangan. Gumbazning devoridagi tayanch konstruksiyalari sakkiz qirrali ravoq yelkanlari amalga oshirilgan. Mehrob sag'ana (dahana) qarshisida o'rnatilgan. Maqbara xom g'ishtdan terilgan. Maqbaraning ichki tomoni yaxshi saqlangan. Tashqi tomoni vaqt o'tishi bilan shikastlangan. Keyinchalik mahaliy aholi tomonidan ta'mirlangan. Gumbazning yemirilgan yemirilgan joyi pishiq g'isht bilan tiklangan.

1960 yilda maqbarani V.I.Nilsen o'rgandi va o'lchadi. Uni XI asr inshooti deb qayd etdi. Maqbara ichidagi qabr tarixiy shaxsmi yoki qadamjoymi, aniqlanmagan. Aholi orasida keng tarqalgan rivoyatga ko'ra, Xo'ja Ro'shnoyi juvozchilarning piri bo'lgan. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ro'shnolik so'zi “yoritish, yorug'lik, ravshanlik” ma'nolarida izohlanadi⁶². Ma'lumki, juvozda zaytun, zig'ir, kunjut va boshqa o'simliklar urug'idan moy olingan. Bu moy iste'moldan tashqari pilikli (qora) chiroqda ishlatilgan. Shu tufayli moyjuvozchilar pirining Ro'shnoyi deb atalganligi ehtimoldan holi emas va bu so'z u kishining ismi bo'lmasdan laqabi bo'lganligi sezilib turibdi.

Angor tumanida antroponimli ariqlar nomi ham mavjud: Hayitshox – Angor tumanidagi ariq (Tallimaron). Hayit – kishi ismi. Arabchada *id*, *iyd* (bayram) so'zining o'zbekcha va forscha tillarida o'zgargan shakli: yd~iyd>ayt>hayt. So'z boshida *-h* tovushining ortishi ko'p uchraydi: arabcha aso – hasa. O'zbekcha o'kiz – ho'kiz, ayqiriq – hayqiriq, Shox – kichik ariq, asosiy suv o'zanidan tarmoqlanib chiqqan suv yo'li. Hayitshox – Hayit ismli kishiga mansub bo'lgan ariq.

Tepa nomlari O'zbekiston toponimiyasida ko'p uchraydi. Tadqiqotchi Sh.Temirov Samarqand viloyati hududida 763 ta tepa nomi uchrashini qayd

⁶² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд, 407- бет.

etgan⁶³. Surxondaryo viloyatida ham tepa nomlari ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, viloyatning Angor tumanida tepalik nomlari anchagina. Misol uchun:

Zartepa – Angor tumanlaridagi qishloq. Termiz tumanidagi tepa. Zartepa – sun'iy tepa, qadimiy qo'rg'on xarobasi. Hisor (qo'rg'on) so'zining o'zgargani – zar<sar<isar<hisor+tepa – “qo'rg'onli tepa” demakdir⁶⁴.

Katta inshootlar o'z navbatida shu hududdagi qishloq nomiga ham asos bo'lgan. Angor /qishloq va tuman markazi/. Angor xududida O'rdalitepa, Zangtepa, Tozartepa, Teshiktepa, Kuchuktepa, Qo'rg'ontepa 2, Boshtepa, Obidobodtepa, Bolaliqtepa, Yalpoqtepa, Sumaktepa, Chiroztepa, Qo'tontepa, Zartepa, Xayrobodtepa, Sho'rtepa, Qizqo'rg'ontepa, Yumaloqtepa nomlari bilan, ataluvchi sun'iy tepalar (tarixiy yodgorliklar) bor. Bu tepalarning ko'pchiligi aslida qadimgi yirik qurilish inshootlarining hozirgi o'rnidir. Angor xududi bir vaqtlar juda obod va ahodisi zich joylashgan shaharlardan biri bo'lgan. Hatto O'rdalitepaning Termiz shahridan ham avval paydo bo'lgan yirik shaharlardan biri ekanligi haqida fikrlar mavjud. Chingizxon zamonasiga kelib, Angor hududidagi obod joylar xarobaga aylangan.

Bolaliktepa – Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi qadimgi arxeologik yodgorlik. V-VI asrlarga oid. Bolaliktepani arxeolog L.I.Albaum o'rgangan. Qal'a-qasr to'rtburchak shakldagi paxsa poydevor ustiga xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, 16 xonadan iborat. Xonalardan sopol va shisha idishlar, turli musiqiy asbob bo'laklari, naqshinkor chilim, taqinchoqlar o'ralgan ipak kiyimlar parchasi va boshqalar topilgan. Xonalardan birida to'y marosimi aks ettirilgan devoriy rasmlar bo'lgan.

Bolaliktepa – katta va kichik tepaliklardan iborat bo'lganligi uchun shunday nom olgan⁶⁵.

O'rdalitepa – O'rdalitepa Angor tumanining “Tallimaron” shirkat xo'jaligi hududidagi qadimiy yirik qurilish inshooti o'zni va tepa atrofida xo'jaliklar

⁶³ Темиров Ш. Самарканд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. докт (PhD) дисс. – Қарши, 2019. – Б.12.

⁶⁴ Нафасов Т. 1988, 79, 80, 81-82 бетлар.

⁶⁵ Турсунов С., ва бошқалар. Сурхон воҳаси моддий маданият тарихи. 190-191 бетлар.

yashagan qishloq nomi. Ammo hozirgi paytda tepa nomi bilan yuritiladigan qishloq unutilgan. Tepa tuman markazidan 8 km., viloyat markazidan esa 34 km. uzoqda joylashgan.

Odatda tepalar tabiiy yoki sun'iy bo'lishi mumkin. Angor tumanidagi *O'rdalitepa, Qo'rg'ontepa, Boshtepa, Shumaktepa, Zangitepa, Tozartepa, Teshiktepa, Kuchuktepa, Obidobodtepa, Bolaliktepa, Yolpoqtepa, Chiroztepa, Zartepa, Xayrobodtepa, Sho'rtepa, Qizqo'rg'ontepa, Yumaloqtepa* kabi tepaliklarning ming yillar davomida turli tarixiy sabablarga ko'ra vayronaga aylangan qarorgohlarning bugungi kundagi qoldiqlaridir. Ayniqsa, tumandagi Bolaliktepa va Yumaloqtepalardan topilgan tarixiy arxeologik topilmalar bu o'lka o'z davrining obod va gullagan madaniyat markazlaridan biri bo'lganligidan guvoh beradi. O'rdalitepa arxeologik qidiruv ishlari olib borilmagan va o'rganilmagan bo'lsa-da, uning bir necha ming yillik tarixga egaligi hatto Termiz shahridan ham avval paydo bo'lganligi haqida fikr va qarashlar mavjud.

Amudaryoning o'ng sohili bilan tutash joylashgan Angor tumani sharq va g'arb chegaralaridagi tepa va qir-adirlarni hisobga olmaganda, mutlaqo tekis yer, tuproqli qum barhanlarida bo'lmagan keng maydon bo'lib aholisi qadim-qadimdan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrlarda Sherobod daryosining suvidan bahramand bo'lib kelishganlar. 1928 yilda hozirgi Qiziriq tuman Oxunboboyev shirkat xo'jaligi hududida joylashgan Tallimavron qishlog'idan Chori Xolboyev boshliq besh xo'jalik O'rdalitepa atrofiga ko'chib kelib (Tallimaron qishlog'i bilan O'rdalitepa o'rtasidagi masofa taxminan 8-10 km), dastlab yakka xo'jalik tartibida yashagan bo'lsa, keyinchalik xo'jalik soni ko'payib, 1930 yilda Jarqo'rg'on tumaniga qarashli "Qizilto'lqin" jamoa xo'jaligi tuzilgan. Shundan keyin asta-sekin O'rdalitepa qishloq nomi iste'moldan chiqib unutilgan. Xo'jaliklar dastlab Sherobod daryosi suvidan foydalangan bo'lsa, 1934 yildan Jarqo'rg'on-Novshahar yo'nalishidagi *Zang* kanalidan uzunligi taxminan 6-8 km masofada bo'lgan ariq qazib suv keltirishganlar. Manbalarda qayd qilinishicha, Jarqo'rg'on-Novshahar yo'nalishidagi *Zang* kanali 1912 yilda butun surxondaryoliklar ishtirokida hashar yo'li bilan uch oyda qazib bitkazilgan. Kanalning *Zang* nomi bilan atalishi esa,

kanalning boshlanish joyidagi *Zangiota* qabristoni (Jarqo‘rg‘on tumani) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z nabatida, *Zangi bobo* XI-XII asrlarda yashagan tarixiy-diniy shaxs va chorvadorlarning piri sifatida Markaziy Osiyoda mashhur bo‘lgan.

Qadimda shirindan shakar qovuni bilan Buxoro bekligigacha mashhur bo‘lgan ming uyli tallimaronliklar 1948 yilda *Zang-Qorasuv* yo‘nalishidagi Zang kanali (uzunligi taxminan 15-20 km.) qazilib ishga tushgach, 1950 yilda yoppasiga yangi o‘zlashtirilgan yerga ko‘chib kelishganlar va “Qizilto‘lqin” jamoa xo‘jaligi bilan birlashib, Sherobod tumaniga qarashli yirik *Voroshilov* nomidagi jamoa xo‘jaligi tuzilgan.

Jarqo‘rg‘on-Qorasuv yo‘nalishidagi kanalning ham Zang nomi bilan atalishi sababi shundaki, kanalning boshlanishi *Qo‘zi To‘lakov* nomli shirkat xo‘jaligi hududini kesib o‘tgan Jarqo‘rg‘on-Novshahar yo‘nalishidagi Zang kanalidan boshlanganligidadir. Shunday qilib, ikki yo‘nalishdagi kanal ham bitta atama bilan yuritiladigan bo‘lgan.

XX asrning ikkinchi yarmida Surxon-Sherobod cho‘li o‘zlashtirilishi munosabati bilan kimsasiz xarobaga aylangan Tallimaron qishlog‘i xarobalari texnikalar yordamida tekislanib, yirik paxta maydoniga aylantirilgan. Tallimaronliklar *qo‘ng‘irot vaxtamg‘ilining ochamayli* urug‘iga mansub bo‘lib, qozoq, bo‘zchi, qulchimaqi, teri kabi to‘rt dahaga bo‘linadi. Hozirgi paytda tallimaronliklarning asosiy qismi Angor tumani Tallimaron qishlog‘ida yashaydi. Bir qismi *Qo‘zi To‘lakov* nomidagi shirkat xo‘jaligida va Termiz tumani “Namuna” shirkat xo‘jaligining *Termizota, Qirqqiz, Kokildorota* mahallalarida ham yashaydi.

1950-yillargacha baland O‘rdalitepaning burchak-burchaklarida to‘rt burchak shakliagi qalin xom g‘ishtdan terilgan, zamonasining yirik qurilish inshooti bo‘lganligini tasdiqlovchi devor qoldiqlari, usti tuproq bilan qoplanib qolgan keng xonalar ko‘p bo‘lgan. Ayniqsa, tepaning sharqiy-janubiy atroflarida qo‘rg‘ondan tashqariga qurilgan binolarning besh olti metr balandlikdagi devor qoldiqlari tepa yonidagi *Nog‘oratepa* va uning yonidagi qabriston qoldiqlari bilan tutashib ketganligi uning yirik qarorgohi majmuasi bo‘lganligini eslatadi.

Taxminan oʻn gektarga yaqin maydonni egallagan, Oʻrdalitepaning aylanasi kamida 35-40 metr chuqurlik boʻlgan va tashqi dushmanlardan saqlanish maqsadida suv bilan toʻlgʻazilib turilgan. Oʻrdalitepaning janubida aylana shaklda xom gʻishtdan qurilgan, hozir balandligi 10-15 metr boʻlgan *Nogʻoratepa* qarorgohni tashqi xavf xatardan ogoh qilib turuvchi, qoʻriqlab turuvchi qoʻriqchilarning doimiy joyi boʻlgan. Ammo *Nogʻoratepaning* dastlab yoki ikki asr avval qanday va qancha balnadlikda boʻlganligi haqida manbalar bizgacha yetib kelmagan.

1948-yilda Jarqoʻrgʻon-Qorasuv Zang kanali qazilib ishga tushgach, tepa atroflari ham tekislanib yoppasiga sugʻoriladigan ekin maydoniga aylangan. Bu kanalning ham Zang nomi bilan atalishiga sabab shuki, yangi kanalning boshlanishi Angor tumaniga qarashli Qoʻzi Toʻlakov shirkat xujaligini kesib oʻtgan Jarqoʻrgʻon- Navshahar yoʻnalishidagi kanaldan olinganligi bilan bogʻliq. Shu oʻrinda oʻtgan asrning 70-yillarida Amudaryo-Surxonsuv ombori yoʻnalishida katta kanal qazilib, yirk nasoslar yordamida chiqarilgan suv inshooti ham Amuzang nomi bilan atalganligini qayd etib zarur. Shunday qilib, oʻtgan asrning yetmish yili mobaynida oldin-keyin bunyod etilgan bir-biri bilan tutash va biri ikkinchisining davomi boʻlgan uch yoʻnalishdagi gidrotoponimlar tarkibida zang atamasining ishtirok etishi izoh talab etadi. Toʻgʻrirogʻi, har bir obyekt, joy oʻz nomi bilan atalishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda, keyingi avlodlar bu atamalarni tarixiy-etimologik izohlashda ikkilanish, chalkashliklarga duch kelishi mumkin.

Oʻrdalitepa aylanasiidagi chuqurlik 1950 yillargacha suvsiz, quruq yontoqzorlardan iborat boʻlgan boʻlsa, keyinchalik atrofga paxta ekilib, chiqindi suvlar tushib oxirgi 50 yil davomida tupa zax va shoʻr suv taʼsirida oʻz tashqi qiyofasini oʻzgartirib ancha choʻkib qolgan. Atrofida xaroba qoldiqlaridan hech qanday belgi qolmagan.

Oʻrdalitepa toponimi tarixiy-arxeologik, lingvistik jihatdan alohida obyekt sifatida oʻrganilmagan boʻlsa-da, *oʻrda* soʻzining maʼnosi, kelib chiqish tarixi, toponimlar tarkibida qoʻllanilishi haqida ayrim manbalarda fikr-mulohazalar

aytilgan. Jumladan, Oʻrdalitepa tarkibidagi oʻrda (< ordo) soʻzini moʻgʻulcha hisoblab, uning maʼnosi saroy, xon qarorgohi, xon shtabi, sulton chodiri, xon harbiy qarorgohi deb izohlanadi. Biroq N.K.Antanov turkiy va moʻgʻul tillarida parallel qoʻllaniladigan *oʻrda soʻzini* turkiy deb qaraydi va bu soʻzning VIII asrning ikkinchi yarmiga tegishli Qultigin yozma yodgorligida tez-tez uchrab turishini qayd etadi. Qiyoslaymiz: moʻgʻul tili yozma yodgorliklarida ordi, tuva tilida ordu-saroy, urxun-enisey yodgorliklarida ordi-qarorgo, manzil, qirgʻiz tilida orda-xon qarorgohi, xon ovuli, xonning qishlogʻi; yoqut tilida orduu-boshpana, sigʻinadigan joy; boshqa baʼzi turkiy tillarda esa bu soʻz farqlanib (differentsiyalashib), armiya, armiya korpusi (*turk, uygʻur chigʻatoy* tillarida) kabi maʼnolarda ham qoʻllanadi.

Oʻrdalitepa shu joyning dastlabki nomini yoki keyingi atamasimi? Bu haqda aniq fikr bildirish qiyin, ammo ayrim manbalarda Oʻrdali dastlab *Burdagoʻy* nomi bilan yuritilganligi haqida fikr-mulohazalar mavjud. Jumladan, akademik V.V.Bartold XV asr temuriylar saroyi tarixchisi Hofizi Abroʻ (Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfilloh al-Havofiy-1362-1431 yil) ning fikriga asoslanib “Turmiz shahridan uncha uzoqda boʻlmagan va Turmiz bilan hamma sohada tenglasha oladigan Burdagoʻy qishlogʻi boʻlgan, uni Aleksandr Makedonskiy qurdirgan. Burdagoʻyning grekcha maʼnosi mehmonxonona” ekanligini qayd etgan holda, Termizdan 30-35 km. uzoqlikdagi hozirgi Oʻrdalitepa eski Burdagoʻyning oʻrni boʻlsa kerak degan mulohazaga keladi. Tadqiqotchi Sh.Safarov esa Burdagoʻy Eski Termiz yonidagi *Fayyoztepa* bilan yonma-yon boʻlgan degan fikr bildiradi.

Oʻrda soʻzi bilan bogʻliq fikrlar Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk” (XI asr), Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” (XI asr) asarlarida ham *Oʻrdu kand (Ordi kand)*-xon qarorgohi joylashgan shahar yoki Qashqar shahrining ikkinchi nomi, oʻrda (ordu) hukumatning, davlat boshligʻining yoki oliy martabali shaxsning turar joyi, saroyi kabi tushunchalar bilan aloqadorligi aytiladi. Toponimist olim T.Nafasov oʻrda turkiy, moʻgʻul tillariga xos va turli tarixiy davrlarda *Katta Oʻrda, Noʻgʻay Oʻrda, Qizil Oʻrda, Ordu, Oʻrda, Oʻrdali* kabi joy nomi sifatida qarorgoh, manzil, makon maʼnolari bilan bogʻliqligini, Oʻrdali XIV-

XV asrlarda yaratilgan va harbiy istehkom vazifasini bajargan bo'lishi mumkinligini qayd etadi. Nihoyat, yirik toponimist olim V.A.Nikonov Rossiyaning Naxichivan avtonom viloyatidagi *Ordubad* shahar nomini turkiy-o'rda va forscha-obod so'zlari bilan bog'lab, toponim tarkibidagi o'rda komponenti harbiy qo'shilma ma'nosida ekanligini yozadi.

Ishonchli manbalarda qayd etilganidek, Burdago'y grek tilida mehmonxona ekanligiga shubhalanmagan holda, uning o'rnini masalasiga ikki xil qarash mavjudligiga munosabat bildirish zarur. Gap shundaki, birinchidan, eski Termiz shahrining yonginasida barcha sohalarda unga teng keladigan ikkinchi joyning (Burdago'yning) yuzaga kelishi, bo'lganligi, ikkinchidan Fayoztepaning g'arbida yirik qurilish inshooti sifatida tilga olingan Burdago'y qoldiqlaridan hech qanday nom-nishon yo'qligi, uchinchidan, odatda mehmonxonalar ko'pincha shahar ichidagi qurilish inshooti bo'lishi mumkin ekanligi kabi masalalarni mulohaza qilish, aniqlik kiritish zarurga o'xshaydi. Shu o'rinda boshqa bir manbada qayd etilgan-Abu Iso (Iso Termiziy) Jayhun kanorasidagi *Bug'* qishlog'ida tavallud topgan. U vaqtlar hozirgi Sherobod shahrini Bug' deb atashardi degan fikr ham Burdago'yning aniq o'rnini belgilashga yordam berishi mumkin.

Har holda, hozir O'rdalitepa nomi bilan yuritiladigan joyning nomi dastlab O'rdalitepa bo'lganmi yoki Burdago'y, degan savolga kelajakda tadqiqotchilar aniqlik kiritsalar, maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi.

O'rdalitepa qo'shma toponimi tarkibidagi o'rda (orda) so'ziga kelganda esa yuqorida qayd etilgan manbalarga asoslanib, o'rda turkiy va mo'g'ul tillari uchun umumiy, mushtarak so'z bo'lib, xon turadigan saroy, manzil, harorgoh ma'nosini anglatadi, *-li* qo'shimchasi o'zakdan anglashilgan narsaning mavjudligi, turkiy tepa geografik termin (toponimik indikator) ekanligini qayd etish mumkin.

Tallimaron – Angor tumanidagi qishloq. Forscha izofa *tal-li-mar-on* o'tli tepa, tepasi ko'k yaylov, mayda tepalari ko'p bo'lgan notekis joy; qo'rg'on o'rinlari ko'p bo'lgan past-baland joy.

3.2.2. Etnonim asosli toponimlar

Angor tumanida etnonimlar asosida shakllangan toponimlar ham mavjudligi aniqlandi. Aslida O‘zbekiston toponimiyasida etnonimlar yuzlab toponimlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan⁶⁶.

Etnonimlar borasida keng qamrovli tadqiqot olib borgan X.Doniyorov o‘zbek millatining etnik tarkibini turk-o‘zbek, qipchoq-o‘zbek, o‘g‘uz-o‘zbeklari tashkil etganligini, bulardan turk-o‘zbeklar, asosan, qarluq, chigil, tuqsi, yag‘mo, yag‘bu, yoboqu, tangut, arg‘u kabi turkiy qabila-urug‘larning birlashishi natijasida tashkil topganligi, bular o‘zbek millatining eng qadimgi va eng birinchi komponenti bo‘lib hisoblanishini qayd etgan⁶⁷.

Oqlar – Angor tumanidagi qishloq (Ilonsoy). Denovda Oqlarariq gidronimi bor. Oq – turkman urug‘i. Turkmanistonning Garrigala tumanida Oq degan qishloq bor. O‘zbek xalqining urug‘, urug‘ bo‘limlari nomi va patronimlar tarkibida oq so‘zi ko‘p takrorlanadi: *oqmang‘it, oqshix, oqpichoq, oqqo‘yli, oqto‘nni, oqkaltak, oqsori, oqtamg‘ali, oqchepkan, oqtona, oqchonach, oqtelpak, oqbo‘rboy, oqvoy*. Bu tip etnonimlar ko‘pchiligining zid nomlari ham bor: *qoramang‘it, qoraqalpoq, qoratelpak, qoraqo‘ng‘irot, qoraquchchi, qorato‘nni (ko‘kto‘nni), qoraqo‘yli, qoratorna, qorakaltak, qorapichoq* va h.k. Turkman juzlarning *oq urug‘iga* mansub qishloq Oqlar deb atalgan.

3.2.3. Belgi bildiruvchi so‘z asosli toponimlar

Toponimlar shakllanishi jarayonida ishtirok etuvchi leksik birliklarning orasida rang-tus, hajm-o‘lchov, o‘rin-joy, ko‘lam-masofa ma‘nolarini ifodalovchi elementlar son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etadi.

Hududda *oq, qora, ko‘k* toposhakllar ishtirokidagi toponimlar ham uchraydi. Bu toposhakllar toponimik tarkibda avvalgi element sifatida ishtirok etadi va ikkinchi so‘zning aniqlovchisi bo‘lib keladi. Aytish lozimki, bunday ko‘rinishda ishtirok etish aniqlovchilik vazifasini bajarayotgan so‘zning boshqa holat yoki qurshovdagi belgini anglatish xususiyatidan o‘zgachadir. Chunonchi, oq, qora kabi

⁶⁶ Qorayev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 76-85.

⁶⁷ Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Наврўз, 2017. – Б.8.

rang bildiruvchi birliklar toponimlar tarkibida rangni anglatish ma'nosi va vazifasidan chetlashadi.

Yuqorida qayd etilgan toponimlar tarkibidagi oq toposhakli bugungi kunda rang-tus ifodalovchi so'z sanalmasligini ta'kidlagan edik. Oqrabot toponimiga izoh berar ekan, professor T.Nafasov Oqrabot degan qishloqlar respublikada anchaligi, rabotning arab istilosidan so'ng savdo yo'llarida qurilgan tevaragi devor bilan o'ralgan manzil, karvonsaroy, harbiy istehkom, shahardan tashqarida qurilgan saroy ekanligi hamda Oqrabot – katta rabot, ulkan istehkom ⁶⁸ ekanligini qayd etgan.

Toponimlar tarkibidagi qora toposhakli bir qancha o'ziga xosliklarni namoyon etadi. Bu haqda so'z yuritar ekan, professor T.Nafasov ushbu so'zning turkiy va mo'g'ul tillarida qora/xara – balandlik..., tekislikdagi kichik balandlik, do'ng joy, kichik tepa ma'nolarida qo'llanishini ta'kidlagan⁶⁹.

Tadqiqotchi A.Pardayev o'zining nomzodlik dissertatsiyasida qora sifat leksemasi xususida so'z yuritib, manbalarda bu so'z *“katta”*, *“yirik”*, *“muhtasham”*, *“ulug'”*, *“qudratli”*, *“kuchli”*, *“pokiza”*, *“musaffo”*, *“quruqlik”*, *“er”*, *“zulmat ko'ki”*, *“shimol”* kabi ma'nolarda qo'llanishi borasida ma'lumotlar mavjudligini ko'rsatgan⁷⁰.

Qoraqir – Angor tumanidagi qishloq, qir hamda balandlik nomi. Qora – balandlik, do'nglik. Qoraqir – baland qir, katta qir. Qora – tekis joyda baland bo'lmagan cho'ziq balandlikning ko'lam belgisi. Qoraqir – balandligi past, usti yassi, yalanglikka o'xshash, cho'ziq do'nglik. Respublikamiz toponimiyasida uchraydigan Oqsuv, Qorasuv toponimlari haqida taniqli toponimist E.M.Murzayevning bildirgan fikrlari⁷¹ ham bu holatni tasdiqlaydi.

Yangidan paydo bo'lgan yoki mavjud obyektning yiriklashishi natijasida yuzaga kelgan obyektga nom berishda uning joylashgan o'rnini e'tiborga olish,

⁶⁸ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Т.: Мухаррир, 2009. – Б. 198-199.

⁶⁹ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Т.: Мухаррир, 2009. – Б. 379.

⁷⁰ Пардаев А.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – Б.8.

⁷¹ Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М., 1974. – С. 200-201.

obyektning geografik jihatdan joylashganligini mo'ljallash muhim sanaladi. Buxoro tumani hududida bir qancha nomlar ana shu tarzda iste'molga kirgan. Bular jumlasiga *Yuqori Tallimaron, Yuqori Xo'jaqiya* kabilar kiradi.

Geografik nomning paydo bo'lish davri ular tarkibida qo'llangan *yangi* so'zi yordamida aniqlanadi: *Yangihayot, Yangiturmush, Yangiobod* kabi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da yangi so'zining o'nta ma'nosi mavjudligi qayd etilgan. Toponimik obyekt nomi tarkibidagi yangi so'zi lug'atda ushbu so'zga berilgan ta'rifning birinchisiga to'g'ri keladi, ya'ni “ilgari bo'lmagan, yaqindagina paydo bo'lgan; yaqinda bunyod etilgan yoki qurilgan”⁷². Yangiturmush – yangidan boshlangan turmush, hayot; Yangiobod – yangi qurilgan yoki yaqinda obod qilingan; Yangihayot – turmush tarzining o'zgarishi, yangi hayotning boshlanishi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ba'zida ushbu toponimlarning imlosi borasida har xilliklar yuzaga keladi. Yozma nutqda ularni chiziqcha bilan yoki ajratib yozish holatlari uchraydi. Aslida ushbu toponimlar ot yasalishining [**sifat+ot**] qolipi hosilasi bo'lib, birinchi komponenti sifat, ikkinchi komponenti ot bo'lgan atoqli otlar qo'shib yoziladi.

Bundan shunday mulohaza kelib chiqadiki, rang-tus bildiruvchi so'zlar ishtirokida hosil bo'lgan toponimlar o'ziga xos bir guruhni tashkil qiladi. Bunda ularning belgi anglatish imkoniyati kengayadi va shartlilik mazmunini kasb etadi.

Shunday qilib, narsa-hodisaning belgi-aniqlovchisi bo'lgan so'z toponimik element tarkibida muhim komponent sifatida ishtirok etadi va alohida ottenka kasb etadi. Bu esa toponimik maydonda til birliklari ma'nolarining yana ham kengayishiga sabab bo'ladi.

3.2.4. Litosonim asosli toponimlar

Angor tumani mikrotoponimlari sirasida litonimlar (tog', tosh, qoya va boshqalar bilan bog'liq atoqli otlar) ishtirokidagi bir necha toponimlar ham

⁷² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 2-том. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 482.

mavjud. Litonimlar respublikaning tog‘li yoki tog‘oldi hududlardan farqli ravishda tumanning landshafti, geografik relyefi bilan bog‘liq emas.

Qayran – Angor tumanidagi massiv (Tallimaron). Tarkibi qayir+an. Qayirdaryoning ikki qirg‘og‘idagi qadimiy o‘zan, yuza qismi tuproq va mayda qum bilan qoplangan daryo bo‘yi. *-an* affiksi o‘rin, joy ma‘nosini anglatadi. Qayran – daryo bo‘yi, qadimda suv oqqanligi tufayli yuzasi mayda qum bilan qoplangan joy

Qayroq – Angor tumanidagi qishloq nomi. Qayroqtosh ko‘pligidan shunday atalgan bo‘lishi mumkin. Qayroq (qayraqli) degan urug‘ ham bo‘lgan, masalan, qozoqlarning qo‘ng‘irot qabilasida *qayroq* urug‘i qayd qilingan.

Zang – Angor tumanidagi qishloq. Forscha sang – tosh, yolg‘iz tosh. Yag‘nob tilida sang – yolg‘iz katta tosh. Bu so‘zning tog‘, balandlik ma‘nosi ham bo‘lgan. So‘z oxiridagi jarangli *ng* tovushi ta‘sirida s jaranglilashib, z ga aylangan. Sang – zang – balandlik, tepa. Qadimda qo‘rg‘onlar baland joyda qurilgan. Ilk ibtidoiy davrda tog‘, tosh sig‘iniladigan asosiy narsalardan biri hisoblangan. Balandlik, tepa, tosh ma‘nolaridagi Zangning joy nomi sifatida qo‘llanishi tog‘ kulti bilan bog‘liq. Shu o‘rinda zang komponentli leksemalarga bir oz to‘xtalib o‘tsak.

Zang komponentli toponimlar. O‘zbek adabiy tilida zang temir, po‘lat va boshqa metallarning namlik va issiqlik ta‘siridan chirishi, yemirilishi, buzilishidir. U gapda aniqlovchi vazifasida kelib darak, xabar kabi ma‘nolarni ham bildiradi. Masalan, zanglagan idishdan suv ichish mumkin emas. Zanglagan bug‘doyning hosili kam bo‘ladi.

O‘zbek shevalarida bu so‘z zangi-narvon /Xorazm shevasida/, barzangi-gavdali, baquvvat va qora /Surxondaryo shevasida/ hamda tok ko‘tarilgan vassacho‘plarni ham zangi nomi bilan yuritadi. Eski o‘zbek tilida ham zang, zangi so‘zlari ishlatilgan. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida va boshqa o‘zbek mumtoz adabiyotlarida *zangi-qora tanli, xabash, zanj; chang, kir, g‘ubor, qora, qoralik va qo‘ng‘iroq* kabi ma‘nolarida berilgan.

Fors tilida ham *zang-zanglamoq; zangi-negr, qora tanli; zang-qo'ng'iroq, xabash, zangi* kabi ma'nolarni bildiradi. Tojik tilida *zang-qo'ng'iroq, zangi-negr, qora tanli; zang-zanglamoq, zangi-xabash, zangi*. Afg'on tilida *zang-qo'ng'iroq, qo'ng'iroqcha; zangi-qora, tanli negr, zang-zanglamoq, sovuq havo, shug'on* tilida *zang, zang'ula-qo'ng'iroq; zangi-qora tanli negr* kabilar.

Zang so'zi kishi ismi, familiyasi va urug' nomlarida ham uchraydi. Zangi Ali/Narxashiyning "Buxoro tarixi" asarida/, Zangi /Rashiddinning "Jome'-at tovarix" asarida/. Zangieva /ishchi, "Qashqadaryo haqiqati" gazetasida, 1970, 6 fevral/. Dayzangi-hazar xalqining urug'i, zangivon-Samarqand atrofidagi arab urug'laridan birining nomi. Xo'sh yuqorida bir necha manbalarda qayd etilgan zangi so'zining biz tekshirayotgan Angor tumani toponimiga aloqasi qanday? Ana shu masala ancha munozarali. XII-XIII asrlarda islom dinini targ'ib qilishda Sulaymon Boqirg'oniy va Ahmad Yassaviydan qolishmaydigan *Zangibobo* /1258-59 yillarda vafot etgan/ nomli diniy shaxs o'tgan. U Islom dinini targ'ib qilishda katta ish qilgan va xalq o'rtasida katta obro'-e'tibor qozongan. Hatto uning nomi turkman xalq og'zaki ijodida ham kuylangan.

Bu esa o'z navbatida toponimiyaga ham ta'sir etmay qolmadi. *Zangibobo* vafot etgach, uning qabri "*Zangibobo*", "*Zangi-ota*" nomlari bilan atalib, ko'pchilik xalqlar uchun "muqaddas" joy bo'lib qoldi. Keyinchalik qabristonning nomi boshqa "ulug'", "muqaddas" hisoblangan joylarning ham atamasi sifatida qo'llanila boshlagan. Natijada, *Zangibobo, Zangi, Zang, Zangivon* tipidagi toponimlar O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Biz *zang* va *zangi* komponentli toponimlardan yigirmatachasini ilmiy adabiyotlardan va ekspeditsiya davrida viloyat hududidan yozib oldik, xolos. Boshqa Respublikalar hududlarida *zang* komponentli toponimlar biz to'plagandan bir necha baravar ortiq bo'lishi shubhasizdir. Yozib olingan toponimlarning ko'pchilik qismi mozor, qabriston, shohid, xaroba, tepalik, "muqaddas" hisoblangan joylarning atamasi bo'lishi kerak.

"Zang" komponentli toponimlar quyidagilar: Dayzangi /Afg'onistondagi bir viloyatning nomi/, *Zangibobo* /minora, Xorazm viloyatida/, *Dara-izang* /"Boburnoma", 179-bet/, *Zangiqa'l'a* /qishloq, Hisor o'lkasida/, *Zangivon*

(“Avazxon” dostonidagi joy nomi), Zangidaryo (Armanistondaryo/, Zangin /Gʻarbiy Mongoliyadagi joy nomi), Zangshon /orol, Hindistonda/, Zangiota /qishloq va katta mozor, machit, Toshkent viloyatida/, Zangibobo /qishloq/, Zangibobo /tepa Gʻuzor tumanida/, Zangar /tepa, Qozogʻistonda/, Zangiobod /qishloq, Boysun/, Zangibobo /qabriston, Jarqoʻrgʻon/, Zangkandal, Zangqishloq, Zangtepa, /Angor tumani/, Zangin /chegara nomi, Moʻgʻulistonda/, zangar eli (Xolbeka dostonidan), ninzang, lokzang, zanglik, “zang”(oʻyin nomi) va hozir nomi unutilgan, ammo tarixiy boʻlgan, aholisi zich, qishloq odamlarining hammasi toʻquvchilik bilan shugʻullangan, Termizdan 12 forsax /bir forsax 6-8 km/ uzoqlikdagi Darzangi qishlogʻi ham boʻlgan.

Yuqorida biz “Zang” komponentli toponimlarni diniy shaxslar nomi bilan bogʻliqligini aytdik. Zang, Zangi va barzangi soʻzlarining genetik maʼnosi nima? Bu haqda adabiyotlarda aniq fikr aytilmagan boʻlsa-da, “Qadimgi turkiy tillar lugʻat”ida zangi forscha soʻz boʻlib, negr, xabash, zanji, koʻchma maʼnoda esa qorongʻi tun kabi maʼnolar kasb etgan degan izoh beriladi. Boshqa adabiyotlarda ham xabash, zanji, qora tanli zangi maʼnolarida berilgan. Shunday qilib, biz tekshirayotgan Zang, Zangi toponimi ham diniy tushunchani ifodalovchi avliyo atalmish Zangibobo nomi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Bu toponimning mazmuni ham eroniy tillarga xos boʻlgan zang soʻzining koʻchma maʼnodagi “qorongʻi”, “koʻrinmas” va ayni zamonda “aziz va muqaddas” hisoblangan diniy yoʻnalishdagi maʼnolari bilan mustahkam bogʻliqdir.

Nogʻoraxona – Angor tumanidagi tepa. X-XIX asr fors tilida magʻora – gʻor, togʻ ichidagi pana joy. Gʻorli, gʻorga oʻyiqfri bor tepa – Nogʻoraxona.

3.3. Oʻzbek toponimiyasida nom yasaliş masalalari

Toponimiya til lugʻat tarkibining ajralmas qismlaridan biri sifatida maʼlum oʻzgarishlarga uchrab turadi. Toponimiya jamiyatning ijtimoiy hayoti, mafkurasi va maʼnaviyatiga yaqin aloqada boʻlgan lugʻaviy qatlam boʻlgani uchun millatning siyosati, jamiyatning dunyoqarashida yuz beruvchi yangilanish va oʻzgarishlar mavjud joy nomlarini doimo baholash, qayta baholashga olib keladi. Bunga yaqqol

misol sifatida O‘zbekiston davlatining mustaqillik davrida olib borayotgan toponimik siyosatini keltirish mumkin⁷³. Ushbu siyosat tufayli O‘zbekistondagi joy nomlari tarkibida ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Sho‘rolar davri g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina nomlar iste’moldan chiqdi, aksincha, o‘sha davrlarda komunistik mafkura tazyiqi ostida siqib chiqarilgan, unutilishga yuz tutgan ko‘pgina tarixiy, milliy hamda o‘zbekona, xalqona nomlar qayta tiklandi. Shuningdek, o‘zbek toponimiyasi tizimi mustaqillik davri ideallarini, intilishlarni ifoda qiluvchi yangi nomlar bilan boyidi. Har qanday tilning toponimik tizimi ma’lum bir davrninggina, ma’lum bir ijtimoiy-siyosiy qarashlarninggina mahsuli emas. Toponimiya tizimi til onomastik sistemasining ko‘p asrlik rivoji mahsulidir. Shu sababli o‘zbek toponimiyasi tizimida eng qadimiy tarixiy toponimlar, yaqin o‘tmish toponimlari, yangi davr toponimlari va tamoman yangi toponimlar yonmayon yashamoqda. Ushbu holat Angor tumani mikrotoponimiyasi tizimi uchun xam tegishli. Albatta, toponimiya tizimidagi barcha nomlarning qachon paydo bo‘lganini aniq belgilashning iloji yo‘q. Chunki ko‘pgina nomlarning qachon va kim tomonidan berilgani hozirda unutilgan. Shu sababli joy nomlarining ijodkori xalq, deb baholanadi hamda bunday nomlar tabiiy toponimlar, xalqona nomlar deb yuritiladi.

Nomlarning paydo bo‘lish tarixi va asoslari unutilsa-da, har qanday toponimning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlangan bo‘ladi. Bu ko‘pgina nomning yasalishi va grammatik strukturasi tahlil qilish orqali belgilanadi. Ayniqsa, iste’moldan chiqqan nomlar o‘rnini to‘ldirish, yangi obyektlarga yangi nomlar berish muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Bunda ikki yo‘l ko‘zga yorqin tashlanib turadi:

1. Yangi nom yasash usuli.
2. O‘zga tillardan nom o‘zlashtirish usuli.

Mana shu ikki yo‘l bilan toponimiya fondi boyib, yangilanib boradi. Toponimik tizimning o‘zgarishi va boyishida har ikkala usul ham muhim. Ammo yangi nom ijod qilish, ya’ni yangi nom yasash yo‘li tilning o‘z ichki

⁷³ Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. –Тошкент, 1998. – Б.33-34.

imkoniyatlariga tayangani, unda tilning milliylik ruhi saqlangani uchun afzalroq, ilg'orroq, deb baholanadi. Toponimlar ishning oldingi sahifalarida qayd etilganidek, tildagi mavjud leksik negizlarga tayanadi. Shu bilan birga toponimiyaning boyish yo'llari ham tildagi bor bo'lgan imkoniyatlardan foydalanadi. Ammo oddiy leksika bilan atoqli otlarning yasashida u yoki bu usul ustunlik qilishi jihatidan farqlar bo'lishi mumkin.

3.3.1. Toponimlarning morfologik usulda yasalishi

Toponimlarning morfologik (affiksatsiya) usulida yasalishi masalasi nomshunoslikdagi eng chalkash, munozarali muammolardan biridir. Chunki hozirga qadar o'zbek nomshunoslari yozgan ko'pgina tadqiqotlarda toponimga asos bo'lgan so'zning yasalishi bilan toponimning yasalishi farklanmaydi, toponegizni yasayotgan so'z yasovchi morfemalar toponim yasovchilar deb talqin kilinadi. Biz bu o'rinda masalaga aniqlik kiritish uchun ikkita ishdagi bu masalaga oid talqinlarni keltirmoqchimiz.

N.Oxunov "Qo'qon gruppasi rayonlari toponimiyasi" mavzusidagi ishida⁷⁴ joy nomlarining morfologik usulda yasalishi haqida gapirib, O'qchi, Dasturxonchi, Temirchi, Ozodlik, Hurlik, Shodlik, Degrezlik, Misgarlik, Novvoylik nomlarini toponimlarning morfologik usulda hosil kilinishi deb talqin qilgan. Xuddi shuningdek, N.Mingboevning Mirzacho'l toponimiyasiga bag'ishlangan ishida⁷⁵ Sirg'ali, Achamayli, Qo'shtamg'ali nomlari -li qo'shimchasi yordamida; Qushchi, Qarapchi nomlari -chi yordamida; Shodlik, Do'stlik, Birlik nomlari -lik yordamida yasalgan toponimlar deb izohlangan. Qayd qilingan toponimlarning negizida aslida o'zbek tilida avvalgi mavjud yasama etnonimlar (sirg'ali, achamayli, qo'shtamg'ali, qushchi), kasb-hunar leksika (dasturxonchi, temirchi) yoki tilda o'sha shaklda tayyor holda uchraydigan turdosh otlar (shodlik, do'stlik, birlik) yotibdi. Demak, keltirilgan holatlarda nom tarkibida kelgan, qayd qilingan qo'shimchalar toponimlar emas, balki u uchun asos bo'lgan toponegizlar,

⁷⁴ Охунув Н. Топонимия кокандской группы районов: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1978. – 23 с.

⁷⁵ Мингбоев Н. Топонимия Мирзачуля (Историко-лингвистический анализ): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Баку, 1988. – 21 с.

apellyativlarni yasagan va ushbu apellyativlar o'sha shaklda tayyor holda toponimlar vazifasiga ko'chgan. Mana shu kabi chalkashliklar o'zbek toponimikasida hozirgacha bajarilgan toponimik tadqiqotlarning deyarli barchasida uchraydi.

Toponimlarning morfologik usul bilan yasalishi masalasiga mashhur toponimist Z.Do'simovning maqolasi ancha oydinlik kiritdi, deyish mumkin. Olim o'zining "Toponimlarning yasalishi masalasiga doir" maqolasida "...Bazzozlik, Hurlik va boshqa toponimlarning toponimga aylanguncha bo'lgan ma'nosi bazzozlik, hurlik kabi leksemalarning ma'nolari orqali konkretlashadi. Shunday ekan, yuqorida keltirilgan toponimlar – *-lik* affiksi bilan hosil qilingan emas, balki bazzozlik, hurlik so'zlarining toponimga ko'chishi natijasida vujudga kelgan. Demak, bu o'rinda toponimlarning affiksial yasalishi emas, balki toponim yasalishining boshqa bir usuli bilan to'qnash kelyapmiz"⁷⁶, deya qayd etgan.

3.3.2. Toponimlarning sintaktik usulda yasalishi

Birdan ortiq negizlarni qo'shish orqali yangi so'z hosil qilish so'z yasashning sintaktik usuli deb yuritiladi. Ushbu usul tilshunoslikda sintaktik usul, so'z qo'shish, negizlarni qo'shish, analitik usul, morfologik-sintaktik usul, kompozitsiya usuli deb ham nomlanib kelinmoqda.

Sintaktik usul til toponimik leksikasini boyitishning eng mahsuldor usullaridan biridir. Ushbu fikr tilning onomastik sathi uchun ham tegishlidir. Shunday qilib, sintaktik usul qo'shma toponimlarni yuzaga keltiradi. Qo'shma toponimni yuzaga keltiruvchi lug'aviy birlik (toponegizlar)lar ma'no va grammatik jihatdan yaxlit bir so'z, fonetik va orfoepik jihatdan bir butunlikka ega leksema (nom) hisoblanadi. Qo'shma toponimlarning toponegizi birdan ortiq so'zdan tashkil topgani tufayli, bu negizni tashkil etgan komponentlar toponimlikkacha bo'lgan ma'lum sintaktik munosabat asosida uyushgan bo'ladi.

⁷⁶ Дўсимов З. Топонимларнинг ясаши масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1980. – 2-сон. – Б.45.

III bob bo'yicha xulosa

1. Angor tuman toponimiyasidagi geografik obyekt nomlari soʻz qurilishi jihatdan rang-barang. Bunda faqat bir asosdan, asos va qoʻshimchadan, asos va asosdan tashkil topgan holatlari kuzatiladi: 1. **Bir asosli:** *Sharq, Zang* kabi. 2. **Asos+affiks shaklida:** *Gul+zor, Qora+bogʻ, Gul+iston* va boshqalar. 3. **Asos+asos shaklida:** *Qora+bogʻ, Yangi+turmush, Katta+qum, Qora+suv, Qoʻsh+tegirmon* kabilardir.

2. Etnonimlar borasida keng qamrovli tadqiqot olib borgan X.Doniyorov oʻzbek millatining etnik tarkibini turk-oʻzbek, qipchoq-oʻzbek, oʻgʻuz-oʻzbeklari tashkil etganligini, bulardan turk-oʻzbeklar, asosan, qarluq, chigil, tuqsi, yagʻmo, yagʻbu, yoboqu, tangut, argʻu kabi turkiy qabila-urugʻlarning birlashishi natijasida tashkil topganligi, bular oʻzbek millatining eng qadimgi va eng birinchi komponenti boʻlib hisoblanishini qayd etgan.

3. Hududda *oq, qora, koʻk* toposhakllar ishtirokidagi toponimlar ham uchraydi. Bu toposhakllar toponimik tarkibda avvalgi element sifatida ishtirok etadi va ikkinchi soʻzning aniqlovchisi boʻlib keladi. Aytish lozimki, bunday koʻrinishda ishtirok etish aniqlovchilik vazifasini bajarayotgan soʻzning boshqa holat yoki qurshovdagi belgini anglatish xususiyatidan oʻzgachadir. Chunonchi, *oq, qora* kabi rang bildiruvchi birliklar toponimlar tarkibida rangni anglatish maʼnosi va vazifasidan chetlashadi.

4. Angor tumani mikrotoponimlari sirasida litonimlar (togʻ, tosh, qoya va boshqalar bilan bogʻliq atoqli otlar) ishtirokidagi bir necha toponimlar ham mavjud. Litonimlar respublikaning togʻli yoki togʻoldi hududlardan farqli ravishda tumanning landshafti, geografik relyefi bilan bogʻliq emas.

5. Toponimiya tizimi til onomastik sistemasining koʻp asrlik rivoji mahsuli boʻlganidan, oʻzbek toponimiyasi tizimida eng qadimiy tarixiy toponimlar, yaqin oʻtmish toponimlari, yangi davr toponimlari va tamoman yangi toponimlar yonma-yon yashamoqda. Ushbu holat Angor tumani mikrotoponimiyasi tizimi uchun xam tegishli.

XULOSA

1. Nomshunoslik (ismshunoslik, toponimika) har bir xalq tarixi, etnografiyasi larning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan bogʻlanib ketadi. Kishilarga va joylarga nom berish turli davrlarda xalqning ijtimoiy hayot sharoitlari, jamiyatda tutgan oʻrni, uning madaniy saviyasi, dunyoqarashi, urf-odati, rasm-rusumlari bilan bogʻliqdir. Nomlar tabiat va jamiyatdagi muayyan oʻzgarishlar bilan bogʻliq holda, maʼlum qonuniyatlar asosida vujudga keladi va xalq tarixi bilan uzviy bogʻliqdir.

2. Keyingi davrlarda antroponimlarning antropotsentrik tadqiqiga bagʻishlangan tadqiqotlar ham yaratildiki, bu nomshunoslikning lingvokognitiv jihatdan oʻrganishga qiziqishning oshganligini koʻrsatadi.

3. Toponim – geografik obyektning, joyning nomi; toponimiya – bu nomlarning yigʻindisi, toponimika – ana shu nomlarni nazariy va amaliy jihatdan oʻrganuvchi sohadir. Toponimikani baʼzan *toponimistika/ toponamastika* deb ham nomlashadi.

4. Oʻzbekistonda onomastik birliklar orasida eng koʻp oʻrganilgani joy nomlari – toponimlar boʻlib, kelgusida bunday tadqiqotlar yanada kengaytirilishi va chuqurlashtiridishi lozim. Shu asosda Oʻzbekiston toponimlarining xaritasi, mukam mal koʻp tomlik izoxli lugʻati maydonga kelishiga mustahkam zamin hozirlanadi.

5. Tadqiqotchilar toponimlarni tasniflashda turli-tuman jihatlarga eʼtibor qaratganlar. Bunda, albatta, milliy til xususiyatlari, nomlarning turlari, ularning paydo boʻlish motivatsiyalari, hajmi, koʻlami, paydo boʻlishning ijtimoiy-maishiy sabablari, tarix, geografiya fanlari va boshqa omillar hal qiluvchi rol oʻynagan.

6. Maʼlumki, u yoki bu til oʻzining tarixiy taraqqiyot jarayonida oʻz ichki imkoniyatlari asosida rivojlanishdan tashqari boshqa tillardan soʻz-terminlar olish hisobiga ham boyib boradi. Xuddi shu ikkinchi tarixiy taraqqiyot yoʻnalishi toponimiyada ham sodir boʻlib turadigan lingvistik qonuniyatlardan biri hisoblanadi.

7. “*Angor*” soʻzining maʼnosi haqida turli fikrlar bor. Mahalliy aholining izohicha, angor – hosili yigʻishtirib olingan gʻalla maydoni. Bunda Angorni qadimda Termiz va uning atrofidagi oʻtroq aholining lalmikor dehqonchilik qiladigan gʻallazori boʻlganligi nazarda tutiladi. Eroniy tillarda, xususan, afgʻon tilida: angara – “angʻiz”, “oʻroq vaqti”, “oʻrim-yigʻim, ekin oʻrib olingan yer”; angar – “toʻsiq, hovli” tushunchasini beradi.

8. Mikrotoponimlarning leksik-semantik, etimologik belgisini tezda tushunish mumkin. U biror obyektning belgisini bildirib sifatga yaqin turadi. Vaqt oʻtishi bilan takomillashib, ixchamlashib, leksik maʼnosidan uzoqlasha boradi va otlashadi. Mikrotoponimlar bir til fakti, bir xalq ijodining mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham mikrotoponimlar maʼlum davr kishilarining mashgʻulotini, obyektning tabiiy boyligini jonivorlar dunyosini oʻrganishda qimmatli manba hisoblanadi.

9. Angor mikrotoponimlari obyekt tili materiallari asosida tarkib topgan turli davr leksikasining mahsulidir. Shunga koʻra toponimlarni leksik-semantik, struktural guruhlarga boʻlib oʻrganish, tasnif qilish toponimik qatlamlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

10. Nom tarkibidagi morfologik qurilish uning leksik-semantik xususiyatlarini aniqroq, batafsilroq bayon etishga koʻmaklashadi. Shu jihatdan qaraganda, Angor tuman toponimiyasidagi geografik obyekt nomlari soʻz qurilishi jihatdan ham rang-barangligini kuzatish mumkin. Bunda faqat bir asosdan, asos va qoʻshimchadan, asos va asosdan tashkil topgan holatlari kuzatiladi: 1. **Bir asosli:** *Sharq, Zang* kabi. 2. **Asos+affiks shaklida:** *Gul+zor, Qora+bogʻ, Gul+iston* va boshqalar. 3. **Asos+asos shaklida:** *Qora+bogʻ, Yangi+turmush, Katta+qum, Qora+suv, Qoʻsh+tegirmon* kabilardir.

11. Etnonimlar borasida keng qamrovli tadqiqot olib borgan X.Doniyorov oʻzbek millatining etnik tarkibini turk-oʻzbek, qipchoq-oʻzbek, oʻgʻuz-oʻzbeklari tashkil etganligini, bulardan turk-oʻzbeklar, asosan, qarluq, chigil, tuqsi, yagʻmo, yagʻbu, yoboqu, tangut, argʻu kabi turkiy qabila-urugʻlarning birlashishi natijasida

tashkil topganligi, bular o'zbek millatining eng qadimgi va eng birinchi komponenti bo'lib hisoblanishini qayd etgan.

12. Hududda *oq, qora, ko'k* toposhakllar ishtirokidagi toponimlar ham uchraydi. Bu toposhakllar toponimik tarkibda avvalgi element sifatida ishtirok etadi va ikkinchi so'zning aniqlovchisi bo'lib keladi. Aytish lozimki, bunday ko'rinishda ishtirok etish aniqlovchilik vazifasini bajarayotgan so'zning boshqa holat yoki qurshovdagi belgini anglatish xususiyatidan o'zgachadir. Chunonchi, oq, qora kabi rang bildiruvchi birliklar toponimlar tarkibida rangni anglatish ma'nosi va vazifasidan chetlashadi.

13. Angor tumani mikrotoponimlari sirasida lironimlar (tog', tosh, qoya va boshqalar bilan bog'liq atoqli otlar) ishtirokidagi bir necha toponimlar ham mavjud. Lironimlar respublikaning tog'li yoki tog'oldi hududlardan farqli ravishda tumanning landshafti, geografik relyefi bilan bog'liq emas.

14. Toponimiya tizimi til onomastik sistemasining ko'p asrlik rivoji mahsulidir. Shu sababli, o'zbek toponimiyasi tizimida eng qadimiy tarixiy toponimlar, yaqin o'tmish toponimlari, yangi davr toponimlari va tamoman yangi toponimlar yonma-yon yashamoqda. Ushbu holat Angor tumani mikrotoponimiyasi tizimi uchun xam tegishli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar :

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси. – Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь.
2. Мирзиёев Ш.М. “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарор. – Халқ сўзи. – 2018. – 6 июнь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – “Халқ сўзи” газетаси. – 2017 йил, 8 февраль. №28 (6722).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

II. Илмий risola, maqola, tezis, monografiya, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar:

1. Абдурахмонов Д. Бешкент район топонимикаси//Ўзбек шевалари лексикаси. – Т., 1966. – Б.387.
2. Ахманова О.С., Беленькая В.Д. Микротопонимика как особый аспект топологии наименований // Вестник МГУ. Серия: филология. – 1966. – №3, - С.85.
3. Ахмедов Т.М. О древнесемантических реликтах аг // ак, гара // кара и сары в тюркских топонимах // Ономастика Узбекистана. – Т.: Ўқитувчи, 1987. – С.23-24.
4. Бартольд В.В. Туркистан в эпоху монгольского нашествия. Соч. I, – М., 1963. – 173 с.
5. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Т.: Фан, 1991. – 152 б.
6. Бегалиев Н. Топонимларнинг ўзбек халқ этногенезидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2004. – 4-сон. – Б. 67-71.
7. Бегалиев Н. “Хўжа” компонентли географик номлар ҳақида // Тил ва нутқ систем-сатҳ талқинида. Проф. Ҳ.Орзикулов хотирасига бағишланган халқаро илмий-назарий конференция материаллари. 2005 йил 10-11 октябрь. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2005. – Б.70-71.
8. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2005. – Б.63-65.
9. Бегматов Э., Наимов С. О классификации топонимов // Тюркское языкознание. –Т.: 1985.-С 275-279.

10. Бегматов Э. Истиклол ўлкасининг топонимик сиёсати // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1997. – 3-сон. – Б.3-9.
11. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Т., 1998. – Б.33-34.
12. Бухоро Шарқ дурдонаси. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.22-28.
13. Витов М.В. Севернорусская топонимия XV-XVIII вв. (К постановке топонимического источниковедения) // Вопросы языкознания. – М., 1967. – № 4. – С.90.
14. Вопросы ономастики. – Самарканд: изд. СамГУ, 1976. – 170 с.
15. Вяткин В.Л. К исторической географии Ташкентского района. ПТКЛА, 1900. – С. 156-159.
16. Гаджиева Н. З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. – М.: Наука, 1975. – 304 с.
17. Ганиев Т. Конверсия в татарском языке. – Казань. 1985. – С. 6.
18. Дарбакова В.Г. К этимологии этнонима – калмык // Этнонимы. – М.: 1970. – С.265-268.
19. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Наврўз, 2017. – Б.8.
20. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 1-сон. – Б. 17-20.
21. Дўсимов З. Топонимларнинг ясаши масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1980. – 2-сон. – Б.45.
22. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Т.: Фан, 1985. – 104 б.
23. Жаббаров И. Ўзбек халқи этнографияси.–Т.: Ўқитувчи, 1994.– 312 б.
24. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1960. – 512 б.
25. Зинин С. И. Микротопонимия Тошкента // Общественные науки в Узбекистан. – 1967. – № 7. – С.55-57.
26. Ишаев А. Ўзбекистон топонимикасидан материал йиғишга доир // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Т., 1963. 5-ж. – Б. 571-576.
27. Камолиддин Шамсиддин. Қадимий исмлардан ясалган жой номлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2003. – 2-сон. – Б.45-51.
28. Караев С.А. Древнетюркские топонимы средней Азии // Советская тюркология. – 1985. – №6. – С. 23-35.
29. Караев С.К. Топонимия Узбекистана. – Т.: Фан, 1991. – 130 с.
30. Каримов И. “Бухоро Шарқ дурдонаси” китобига сўзбоши. Шу асар. –Т.: Шарқ, 1997. – Б.3.
31. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Т.: Фан, 2006. – 129 б.
32. Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Т.: Фан, 1982. – 96 б.
33. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: СЭ. 1964. – С.205.

34. Карпенко Ю.А. Лингвистика-география-история // Проблемы топонимического этимологизирования. СС. – М., 1970. – Вып.4. – С.91.
35. Кононов А.Н. О семантике слов *қара* и *ақ* в тюркской географической терминологии. – ИООН АН Тадж. ССР, вып. V. 1954. – С.83-85.
36. Мадрахимов З. Топонимика фанидан маъруза матни. – Наманган, 2010. – Б. 24.
37. Мамедов М. Халқ номлари жой номларида.– Т., 1981. – 48 б.
38. Маракуев А.В. Краткий очерк топонимики как географической дисциплины. Уч. зап. Казахск. ун-та. Т.18, вып. 2. 1954. – С.32.
39. Матвеев А.К. Субстратная микротпонимия как объект комплексного регионального исследования // Вопросы языкознания. – 1989. №1. – С. 77-85.
40. Махпиров В. Тюркские топонимы в «Дивану лугат-ит тюрк» // 1983. – №1. – С. 34-39.
41. Мизиев К.А. О патомониме *argu* // Советская тюркология. – 1985. – №2. – С.38-41.
42. Молчанова О.Т. К вопросу о географической терминологии и топонимии территории // Советская тюркология. – 1972. – №6. – С. 68-73.
43. Муллаев Т. Жанубий Қозоғистон топонимикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1968. – 1-сон. – Б.40.
44. Муллазоде С.М. Топонимия северных районов Азербайджана. – Баку: Маариф, 1979. – С.137-138.
45. Мурзаев Э.М. Изучение географических названий. Справочник путешественника и краеведа т. 2.. – М., 1950. – С. 649.
46. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. – С.81; 200-201.
47. Муҳаммаджонов А. Жой номлари – тарихий манбадир // Илмий-амалий конференция докладлари тезислари. – Т., 1994. – Б.15-17.
48. Муҳаммаджонов А. Работ атамаси этимологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1995. – 2-сон. – Б.43-45.
49. Муҳаммаджонов А. Самарқанднинг тарихий топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. – 4-сон. – Б.38.
50. Муҳаммаджонов Қ. Топонимлар – халқ тарихини ўрганиш манбаи// “Ономастика Узбекитана” тезиси 2-республиканской научно-практической конференции. (Карши, 14-16 сентябрь 1989). – Т., 1989. – С.55.
51. Муҳаммаджонов А. Айрим топонимлар семантикаси// Ўзбек тили ва адабиёти – 2004. – 2-сон. – Б,39-42.
52. Назаров К., Эназаров Т. Жой номларини йиғиш сўроқлиги. – Т.: Университет, 1995. – Б.19-24.
53. Наимов С. Топонимик аниқлагичлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1983. – 4-сон. – Б. 62-63.
54. Нафасов Т. Объектларнинг номланишига доир // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Т., 1976. – Б.56-59.

55. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. – Қарши: Насаф, 1993. – 154 б.
56. Нафасов Т. Қашқадарё кишлоқномаси. Қашқадарё вилояти кишлоқлари номининг тадқиқи. – Т.: Мухаррир, 2009. – Б. 198-199.
57. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). – Т.: Ўқитувчи, 1988. – 135 б.
58. Неъматова Ю. Наманган вилояти ойконимлари // Илм зиёдир. Проф. Р.Расулов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. – Т.: ТДПУ нашри, 2006. – Б.167-170.
59. Ономастика Узбекистана. – Т.: Ўқитувчи, 1987. – 92 с.
60. Ономастика Узбекистана. – Т.: Ўқитувчи, 1989. – 208 с.
61. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Т.: Фан, 1997. – Б. 94-111.
62. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Т.: Фан, 1989. – Б.18.
63. Охунов Н., Ахмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона, 2010. – 122 б.
64. Подольская Н.В. Проблемы ономастического словообразования (к постановке вопроса) // Вопросы языкознания. – 1990. – №3. – С. 40-53.
65. Подольская Н.В., Суперанская А.В. Терминология ономастики // Вопросы языкознания. – 1969. – № 4. – С.141.
66. Поспелов Е. М. Картографирование как метод исследования субстратной топонимики // Вопросы языкознания. – 1967. – № 1, – С.80.
67. Рахматов Т. Этимология топонима Самарканд // Советская тюркология. – Баку, 1973. – №4. – С.43-50.
68. Саидов А. Тоғ сойлари – суғориш манбаи. – Т.: Фан, 1974. – Б.14.
69. Саттаров У. Топонимик ривоятларнинг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2000. – 6-сон. – Б. 36-39.
70. Суперанская А.В. Теоретические проблемы региональных топонимических исследований // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. – С. 10-11.
71. Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – С.43.
72. Терминология ономастики // Вопросы языкознания. – 1969. – №4. – С. 140-146.
73. Томахин Г.Д. Топонимы как реалии языка и культуры (на материале географических названий США) // Вопросы языкознания. – 1984. – №3. – С. 84-90.
74. Топоров В.Н. Из истории теоретической топономастики // Вопросы языкознания. – 1962. – № 6.
75. Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 176 б.
76. Уринбоев Б.У., Бегматов Э.А., Караев С.К. Топонимика Узбекистана (состояние и проблемы) // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. – С.3-5.

77. Файзиев А., Назаров И. Фитонимлар – ахборот манбаи//Жой номлари – халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 1998. – Б.77-78.
78. Холмўминов Х. Бойсун район микротопонимларининг лексик-семантик хусусиятлари // Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 1988. – Б. 73-75.
79. Хромов А.Л.Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. –Душанбе: Ирфон, 1975, –С.7.
80. Хромов А.Л. Таджикская микротопонимия долин Верхнего Зерафшана и Ягноба//Ономастика Средней Азии. – М.: Наука, 1978. – С.58-62.
81. Шарипов Ҳ. Жанубий Қозоғистон топонимикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 2-сон. – Б.48-52.
82. Эназаров Т.Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини. – Т., 2004. – Б.4.
83. Юсупов К. Айрим топонимлар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 1-сон. – Б.15.
84. Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах, 1992. – 53 б.;
85. Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. – С., 1997. – 202 б.
86. Қодирова Ш. Тошкент микротопонимиясининг номланиш принципларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1966. – 6-сон. – Б.38.
87. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б.6.
88. Қораев С. Топонимика ва тарихий география // “Жой номлари – халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 1998. – Б.99-100.
89. Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 239 б.
90. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т.: 2005. –Б.57.
91. Ҳамроқулов Ҳ. Географик номлар сири. – Т., 1985.
92. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: Фан, 1965. – Б.3.
93. Ҳасанов Ҳ. Ер тили. – Т.: Ўқитувчи, 1977. –102 б.
94. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Т.: Ўзбекистон, 1985. – 120 б.
95. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом, 1-жилд. – Т., 1966, – 273 б.

III. Dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari:

1. Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2005. – 46 б.

2. Данчинова И. А. Методологии и методика синхронического изучения топонимических систем: Автореферат дисс. д-ра филол. наук. – М., 1983. – 25 с.
3. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Автореферат дисс. д-ра филол. наук. – Т., 1986. – 52 с.
4. Закиров А.А. Топонимия Джизахской области Узбекской ССР: Автореф. дисс.канд. филол. наук. – М., 1991. – 20 с.
5. Кадырова Ш.М. Микротопонимы Ташкента: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1970. – 28 с.
6. Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана: Автореф. Дисс.канд. филол. наук. – Т., 1969.
7. Караев С.К. Ойконимия Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. – Т., 1998. – 50 с.
8. Карпенко Ю.А. Топонимия Буковины: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Киев, 1967. – С.24-25.
9. Латипов Ж. Марғилон шаҳри ва унинг атрофи топонимияси: Филол. фанлари номз.дисс. – Т., 1975. – 219 б.
10. Мингбоев Н. Топонимия Мирзачуля (Историко-лингвистический анализ): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Баку, 1988. – 21 с.
11. Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: Фил. фан. номз.... дисс. – Т., 1968. – 301 б.
12. Орипов Ў.А. Нурота тумани макро- ва микротопонимиясининг лисоний таҳлили: Филол. фан. номз....дисс. автореф. – Т., 2003. – 22 б.
13. Охунов Н. Топонимия кокандской группы районов: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1978. – 23 с.
14. Пардаев А.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. номз.... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – Б.8.
15. Ражабов Ў. Хоразм топонимияси индикаторларининг лисоний таҳлили: Филол. фанл. номз.... дисс. автореф. – Т., 2007. – 47 б.
16. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Қарши, 2019. – Б.12.

IV. Lug‘atlar:

1. Абрамян С. Р. Пехлавийско-персидско – армяно-русско – английский словарь. – Ереван, 1965. – С.61.
2. Арабско-русский словарь. Сост. Х.К.Баранов. – М., 1962, – 956 с.
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.76-83.
4. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1977. – Б.48.
5. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 515.

6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 3 жилдлик. 3-жилд. – Т.: Фан, 1963. – 422 б.
7. Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе: Нашриёти “Адиб”, 1987. – С.119-120.
8. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарлари ўн беш томлигига илова. – Т.: Ғафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.517.
9. Найимов С. Бухоро вилояти жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро, 1997. – Б.14.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. – Б.31-32.
11. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Справочник лингвистических терминов. – М., 1972. – С.447.
12. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Том 1. – М.: Наука, 1974. – С.188.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. – М.: Рус тили, 1981. – 631 б.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 2-том. – М.: Рус тили, 1981. – 717 б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2006. – 679 б.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2006. – 671 б.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2007. – 687 б.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 592 б.
20. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 жилдли. 2-жилд, – Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. –Б. 282; 299.
21. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.462.
22. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. 7-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. –Б. 486.
23. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. 10-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. –Б. 309.

VI. Интернет материаллари, электрон ресурслар:

1. [http:// www.rusnauka.com](http://www.rusnauka.com)
2. <http://dic.academic.ru>
3. <http://dissercat.com/content>
4. <http://slovari.yandex.ru>
5. <http://fermeruz//uz>